

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

JABBOROV XAZRAT XUSENOVICH

**PSIXOLOGIYA QISQACHA
IZOHЛИ LUG'AT**

Тошкент -2025

Mazkur “Psixologiya qisqacha izohli lug‘atni” qadrli marhum shogirdim Jahongir Amanovning yorqin xotirasiga bag‘ishlayman!

X.X.Jabborov. Psixologiya qisqacha izohli lug‘at nomli uslubiy qo’llanma. – T., 2025. – 124 6.

Mazkur "Psixologik qisqacha izohli lug‘at" 60310300-Psixologiya ta’lim yo’naliishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, mutaxassislar hamda bu sohaga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda psixologiya faniga oid asosiy tushuncha va atamalar aniq va sodda tilda izohlangan. Lug‘at psixologik bilimlarni keng targ‘ib qilish, ilmiy terminlarni to‘g‘ri tushunish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Lug‘atda klassik va zamonaviy psixologiyaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha tushunchalar berilgan bo‘lib, har bir atama ilmiy aniqlik bilan ta’riflangan va ularning amaliy qo‘llanilishi tushuntirilgan. Bu asar nafaqat talabalar uchun, balki psixologiya bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar va ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ham muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur lug‘at psixologik terminologiyani o‘zlashtirish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim manba bo‘lib, soha mutaxassislarining amaliy faoliyatida ham qo‘l keladi. Shuningdek, lug‘at psixologiyaning turli mavzularini o‘rganishda hamda fan va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nashr soha bo‘yicha bilim olishni istagan barcha o‘quvchilar, pedagoglar, tadqiqotchilar va amaliyotchi psixologlar uchun foydali bo‘lishiga ishonamiz.

Тақризчилар:

Sh. X.Abdullayeva – TDSHU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, psixol.f.d, professor

Sh.Sh. Rustamov – BuxDU, “Psixologiya” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

Mazkur uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2025-yil 28-maydagi 126-UM- son buyrug‘iga asosan O‘quv- uslubiy kengashining 2025 yil 16 may oyidagi 8-sonli majlisida muhokama etilib, nashr etishga ruxsat berildi

KIRISH

Bugungi kunda inson psixikasi, ongi va xulq-atvorini chuqur o‘rganish nafaqat fan sohasida, balki hayotning turli jabhalarida ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanib, ijtimoiy munosabatlar murakkablashgan sari, insonning psixologik jihatdan barqarorligi va o‘zini anglash darajasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, psixologiya fanining asosiy tushuncha va atamalarini aniq va to‘g‘ri talqin qilish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Mazkur psixologik izohli lug‘at ana shunday ehtiyojni qondirish maqsadida tayyorlangan bo‘lib, unda psixologiyaning muhim tushunchalari, ilmiy terminlari va asosiy kategoriyalari atroflicha yoritilgan.

Lug‘atda berilgan har bir atama fanning klassik va zamonaviy yondashuvlari asosida tushuntirilib, ularning mazmun-mohiyati izchil ochib berilgan. Bu esa nafaqat psixologiya sohasi mutaxassislar, balki talabalar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda inson psixologiyasiga qiziqish bildirgan keng kitobxonlar ommasi uchun ham foydalidir.

Lug‘atning dolzarbliji. Bugungi dunyoda inson tafakkuri va xulq-atvori bilan bog‘liq ko‘plab muammolar yuzaga kelmoqda. Ruhiy zo‘riqishlar, depressiya, stress, shaxslararo munosabatlardagi muammolar, emotsiyonal barqarorlik masalalari – bularning barchasi inson hayotiga bevosita ta’sir qiluvchi omillardir. Bu kabi masalalarni anglash va ularga yechim topish uchun psixologik bilim va tushunchalarni to‘g‘ri o‘zlashtirish lozim.

Lug‘atning dolzarbliji, avvalo, jamiyatimizda psixologik savodxonlikni oshirish bilan bog‘liq. Bugungi kunda nafaqat mutaxassislar, balki har bir inson psixologiyaning asosiy tushunchalarini bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi zarurdir. Chunki inson o‘z hissiyotlarini, motivlarini va harakatlarini tushunmagan taqdirda, muammolar yechimi murakkablashib boradi. Shu sababli, ushbu lug‘at nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Lug‘atning ahamiyati va qo‘llanilishi. Mazkur lug‘at quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

Ilmiy manba sifatida foydalanish – Psixologiya sohasi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar, magistr va doktorantlar uchun muhim qo‘llanma bo‘lishi mumkin.

O‘quv jarayonida qo‘llash – Universitet va kollejlarning psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga, o‘qituvchilarga va amaliyotchi psixologlarga nazariy bilimlarini mustahkamlashda yordam beradi.

Amaliy psixologiyada ishlatalishi – Amaliyotchi psixologlar, maslahatchilar, trenerlari uchun ish faoliyatida qo‘llanilishi mumkin.

Psixologiyaga qiziquvchilar uchun qo‘llanma – Oddiy kitobxonlar uchun ham inson psixikasi va ruhiy jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

Lug‘atni tuzishda ilmiy-psixologik adabiyotlar, yetakchi olimlarning tadqiqotlari, xalqaro manbalar va psixologiya tarixidagi fundamental asarlarga tayangan holda izohlar ishlab chiqildi. Terminlarning tushuntirishlari qisqa, lo‘nda va aniq bayon qilinib, ularning qo‘llanilish doirasi keng qamrovda ko‘rsatildi.

Xulosa qilib aytganda psixologiya fani jamiyat taraqqiyotida, inson ongi va tafakkurini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu izohli lug‘at 60310300-Psixologiya ta’lim yo’nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning psixologik bilimlarni ommalashtirishga, atamalarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi. Bu lug‘atning har bir kitobxon uchun foydali bo‘lishiga ishonch bildiraman va undan samarali foydalanishingizni tilayman deb muallif.

A

Abstinentsiya (lot.abc-dan qo'shimchasi, teneo - saqlanmoq) – spirtli ichimlik va narkotik modda qabul qilishni birdan to'xtatganda hosil bo'ladigan salbiy holat. U bosh og'rig'i, bosh aylanishi, og'iz ko'rishi, taxikardiya, ba'zan kayfiyatni tushishi, uyqusizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Abstraktsiya (lot. abctractio - mavxumlashtirish, uzoqlashtirish) – mavhumlik; tafakkurning asosiy operatsiyalaridan biri. U narsaning muhim xususiyat va bog'lanishlarini ajratishga asoslangan fikriy amal bo'lib, boshqa xususiyatlariga e'tibor berilmaydi. Narsa va hodisalarning belgilarini, xususiyat yoki sifatlarini fikran ajratib olish.

Abuliya (yunon. Abule - irodani inkor etmoq, jur'atsizlik) – eng oddiy qarorga ham kela bilmaslikda o'z aksini topadigan kasallangan irodasizlik. Ya'ni, nerv tizimi kasallanishi oqibatida irodaning susayib ketishi. A. holatida kishi eng oddiy harakatlarni ham bajara olmay qolishi mumkin. A. jismoniy va psixik jihatdan to'g'ri rivojlanmaslik yoki nerv tizimi zaharlanishining natijasi ham bo'lishi mumkin.

Aviatsiya psixologiyasi (lot. avis - kush – yunon. psyche – ruh, logos – tushuncha, ta'lilot) insonning uchish vositalarida uchishni o'rganishi va uchishdagi faoliyatning psixik qonuniyatlarini o'rganuvchi soha.

Avtogenez (yunon.- autos - o'zim, genesis - kelib chiqish) – organik dunyoning tarixiy taraqqiyoti organizmning ichki, moddiy bo'Imagan omillari ta'sirida sodir bo'ladi, deb da'vo qiluvchi ta'lilot. A. organizmning butunligini, hayot sharoitlariga bog'liqligini, uning taraqqiyot jarayonida, muhit, yashash sharoitlari ta'sirida tarkib topadigan belgi va xususiyatlarni inkor qiladi.

Avtomatizm (yunon. automatos - o'z-o'zidan sodir bo'ladigan) – ongning to'g'ridan – to'g'ri ishtirok etmasdan amalga oshiriladigan faoliyati. A.ga organizmning eng oddiy reflektor harakatlaridan tortib, to yuksak aqliy harakatlarigacha bo'lган barcha x.-x.lar kiradi. A. faoliyat turlarini bajarishni tezlashtiradi va yengillashtiradi, asabiy, irodaviy hamda jismoniy kuchlarni tejaydi.

Avtomatlashgan harakatlar – ko'p marta mashq qilish orqali turli ko'nikmalarning shakllanish jarayoni. Harakatlarning ko'p marta takrorlanishi yoki maxsus mashqlar qilish natijasida bevosita ong ishtirokisiz tez va to'g'ri bajarilaveradigan harakatlar.

Avtoritet (lot.autoritas – to'liq xokimiyat) – obro', shaxsdagi ko'pchilik tomonidan e'tirof qilingan fazilat, atrofdagi boshqa kishilarga nisbatan ta'sirli, nufuzli shaxs.

Avtoritar – o‘zaro muomala va faoliyatda sheriklarini imkoniyati boricha o‘z ta’siriga bo‘ysundirishga intiluvchi shaxsning ijtimoiy – psixologik tasnifi.

Avtoritarizm (lot. Auctoritas - xokimiyat, ta’sir) – buyruq asosidagi talablarga o‘ylamasdan ko‘r – ko‘rona bo‘ysunish. Uni avtoritet so‘zi bilan adashtirmaslik kerak.

Aviatsiya psixslogiyasi (lot. Avis - qush - yunon, psyche - pyx logos - tushuncha, ta’limot) - psixologiya tarmog‘i bo‘lib, uchuvchilar shaxsi va turli uchish faoliyatining psixik xususiyatlarini o‘rganadi.

Avtomatlashtirish (yunov. Automatos - o‘z - o‘zida sodir bo‘ladigan) – mashq qilish orqali turli malakalarni shakllantirish jarayoni.

Avtonom nutq (yunon, autos - o‘zi - nomos - qonun) - bolaning o‘z nutqi ko‘p ma’no va noaniq so‘zlar bilan xarakterlanadigan, ichki nutq, bunda turli narsalarning bir-biri bilan beqaror va uzviy bog‘liqligi tufayli so‘zlarning ma’nosi ham vaziyatga qarab o‘zgaradi, bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o‘tish davri bo‘lib hisoblanadi. avtonom nutqi teng yoshli bolalarda yaqqol bo‘ladi.

Aksedental qobiliyatları (lot. Aksedentio - tutib olish) odamning xavf - hatarsiz, saranjom - sarishta faoliyatda bo‘lish qobiliyati. Aksedentomning yoshlarning kasb tanlashi va kasbga yo‘llashdagi amaliy ahamiyati katta.

Agglyutinatsiya (lot.agglutinare – yopishtirmoq) bir necha narsalarning ayrim har xil qismlarini olib birlashtirilib, yangi narsa va hodisalarning obrazlariga yaratilgan iborat xayol faoliyati. Mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga «yopishtirib» qo‘sish asosida . Mas. suv parisi obrazi.

Agnoziya (yunon.a-inkor yu, gnosis -bilim,bilish) - bosh miyaning ma'lum jarohatlanishi natijasida idrokning buzilish hollari. A. butun aqliy faoliyatning buzilishidan farq qilib, miya po‘stlog‘i faoliyatidagi juz'iy kamchilik.

Agnostitsizm (yunon. a-inkor yu., gnosis –bilim, bilish) –ob'ektiv olamni, haqiqatni bilishni inkor qiluvchi, shaxsning bilish qobiliyatini kamsituvchi idealistik oqim.

Agoniya (yunon.agonia-ko‘rash) organizmnинг o‘limi oldidan yoki hayot bilan o‘lim orasida ro‘y beradigan psixopatologik holat.

Agrafiya (yunon. A - inkor yuklamasi, grapho - yozaman) nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi. Agrafiyada odam yozish qobiliyatini butunlay yo‘qotadi yoki so‘zlarda harflarni tushurib qoldiradi, harflarni qo‘sha olmaydi. Agrafiya katta odamlarda bosh miya po‘sti faoliyatining buzilishi natijasida ro‘y bersa, bolalarda u duduqlik natijasida kelib chiqadi.

Agroziya - idrokning buzilishi. Agrafiya miyaning ma'lum bir jarohatlanishida natijasida sodir bo‘ladi

Adaptatsiya (lot. adaptaro–moslashmoq) sezgi a'zolari (analizatorlar) ning ta’sirot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o‘zgarishi A.

hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz ta'sirga o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta'sir kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. A.qonuniyati, organik sezgilardan boshqa, barcha sezgilar sohasiga xosdir. U fiziologik, ijtimoiy – psixologik va kasbiy moslashishga bo'linadi.

Adekvatlik (lot, adecvatus tenglashtirilgan) - teng, o'xshash, muvofiq kelmoq. Mas., javoblarning adekvatlish va x,k.

Abstrakt tafakkur – Ob'yektlarning umumiyligi belgilarini ajratish va ulardan yangi tushunchalar hosil qilish qobiliyati.

Absolyut eshitish – Ohanglarni referens nuqtasiz aniqlay olish qobiliyati.

Addiktiv xulq-atvor – Shaxsning giyohvandlik, alkogolizm yoki boshqa qaramliklarga moyilligi.

Adekbatchilik – Reallikka mos keladigan, to'g'ri fikrlash yoki munosabat bildirish qobiliyati.

Adolesensiya – O'smirlik davri, o'tish yoshidagi psixologik va fiziologik o'zgarishlar jarayoni.

Affektiv xotira – Kuchli hissiyotlar bilan bog'liq voqealarni eslab qolish qobiliyati.

Affektiv tafakkur – Hissiyotlarga asoslangan, mantiqiy tahlildan yiroq fikrlash turi.

Agorafobiya – Ochiq joylardan yoki gavjum hududlardan qo'rqish.

Agressiv xulq-atvor – Atrofdagilarga zarar yetkazishga qaratilgan tajovuzkorlik.

Agitatsiya – Bezovtalik, harakatlarning tezlashishi bilan ifodalanuvchi holat.

Akulturatsiya – Bir madaniyatning boshqasiga ta'sir qilishi natijasida yuzaga keladigan moslashish jarayoni.

Akustik xotira – Ovoz va tovushlarni eslab qolish qobiliyati.

Aktsentual shaxs – Shaxsning ayrim belgilari haddan tashqari rivojlaniganligi.

Alaliz – Nutq rivojlanishining kechikishi yoki to'xtashi.

Analistik tafakkur – Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali fikrlash qobiliyati.

Analogik tafakkur – Benzetish orqali qaror qabul qilish va fikrlash jarayoni.

Anartriya – Nutqning jismoniy sabablar bilan buzilishi.

Anesteziya – Hissiyotlarni yo'qotish holati.

Angedoniya – Quvonch hissini yo'qotish, zavqlanishning kamayishi.

Anglash – Kognitiv jarayon bo'lib, inson voqelikni tushunib yetishi.

Anksiyete – Ichki bezovtalik va qo'rquv holati.

Anoreksiya – Tana qiyofasini noto'g'ri idrok qilish natijasida ovqat iste'molini kamaytirish kasalligi.

Antagonistik munosabatlar – Ikkita inson yoki guruh o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik.

Antisotsial shaxs – Jamiyat qoidalariga moslashmagan, ijtimoiy norma va qonunlarni buzadigan shaxs.

Aperseptsiya – Yangi tajribani oldingi bilimlar asosida tushunish.

Appersepsiya – Idrok jarayoni subyektiv tajribalar ta’sirida kechishi.

Apraxiya – Maqsadga muvofiq harakatlarni bajara olmaslik.

Aprozeksiya – Diqqatning buzilishi, e’tiborni jamlay olmaslik.

Araxnofobiya – O‘rgimchaklardan qo‘rqish.

Artikulyatsiya – Nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyati.

Assotsiativ tafakkur – Bir tushunchani boshqasiga bog‘lash orqali fikrlash.

Assotsiativ xotira – Ob’yektlar va hodisalarni o‘zaro bog‘lab eslab qolish.

Assotsiatsiya – Fikrlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanish.

Ataksiya – Harakat muvozanatini saqlash qobiliyatining buzilishi.

Atavizm – Odam yoki hayvonning o‘tmish avlodlariga xos belgilarni saqlab qolishi.

Atipik rivojlanish – Shaxsning normadan og‘ishi bilan tavsiflanadigan rivojlanish jarayoni.

Atoniya – Muskullar yoki ruhiy faoliyatning sustlashishi.

Aversiya – Muayyan ob’ekt yoki hodisaga nisbatan kuchli salbiy hissiyot.

Avtotrening – O‘z-o‘zini ruhiy holatga moslashtirish usuli.

Avtonom nerv tizimi – Organizmning mustaqil ishlovchi nerv tizimi.

Avtonomiya tamoyili – Shaxsning mustaqilligi va o‘zini boshqara olish qobiliyati.

Axborotli stress – Ko‘p axborot oqimi natijasida yuzaga keladigan ruhiy charchoq.

Affektiv ifoda – Shaxsning his-tuyg‘ularini yuz ifodalari, tana harakatlari yoki ovoz tembri orqali namoyon etishi.

Affiliyatsiya – Insonning boshqa odamlarga yaqin bo‘lishga, ularning jamiyatida bo‘lishga bo‘lgan ehtiyoji.

Avtokratiya – Jamoada yoki jamiyatda hokimiyatning bir shaxs yoki kichik guruh tomonidan to‘liq nazarat qilinishi.

Agressiya (ijtimoiy agressiya) – Boshqalarga zarar yetkazish yoki ularga tajovuzkorlik bilan munosabatda bo‘lish harakati.

Agressiv kommunikatsiya – Shaxsning muloqot jarayonida boshqa odamlarning huquq va his-tuyg‘ularini mensimasdan o‘z manfaatini ustun qo‘yishi.

Aksiologiya – Jamiyatda qadriyatlar va ularning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik yo‘nalish.

Aloqa (ijtimoiy aloqalar) – Odamlar o‘rtasidagi axborot almashinushi va munosabatlarni shakllantirish jarayoni.

Aloqa kanallari – Ijtimoiy guruhlarda axborot uzatiladigan usullar (og‘zaki nutq, yozma nutq, vizual signallar va h.k.).

Amaliy sotsial psixologiya – Jamiyatdagi real muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Anomiya – Jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarning zaiflashishi natijasida yuzaga keladigan tushkunlik holati.

Antagonistik munosabatlar – Guruhlar yoki shaxslar o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik.

Antisotsial xulq-atvor – Jamiyat qoidalariga zid bo‘lgan va boshqa odamlarga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar.

Asimmetrik muloqot – Jamoada yoki guruhda bir tomonning boshqa tomondan ustunligi sababli muloqot noteng kechishi.

Asosiy guruhi – Odamlarning yaqin, uzoq muddatli va doimiy ijtimoiy aloqalar orqali birlashgan guruhi (oila, do‘stlar, jamoa).

Assotsiativ munosabatlar – Odamlarning o‘zaro hamkorligi va fikr almashinushi orqali bog‘lanishi.

Attributsiya – Insonning boshqalarning xatti-harakatlariga sabab topishga bo‘lgan moyilligi.

Attributsion xatolik – Odamlarning boshqa kishilarning xatti-harakatlarini tushuntirishda xatoga yo‘l qo‘yishi, masalan, muvaffaqiyatni ichki omillar, muvaffaqiyatsizlikni esa tashqi omillar bilan bog‘lash.

Avtostereotip – Guruh a’zolarining o‘z guruhlari haqida shakllantirgan tasavvurlari.

Avtomatik itoatkorlik – Kishi ongli ravishda sababini tushunmagan holda, boshqa odamlarning talablariga bo‘ysunishi.

Axborothi ta’sir – Guruh a’zolarining yangi axborot ta’sirida o‘z fikrlarini o‘zgartirishi.

Aytish samaradorligi – Nutq orqali fikr yoki ta’sir o‘tkazishning muvaffaqiyat darajasi.

Aylana aloqa – Guruh ichidagi o‘zaro munosabatlarning doimiy ravishda takrorlanishi va rivojlanishi.

Axloqiy hukm – Odamlarning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga asoslanib qabul qilgan qarorlari.

Assotsiatsionizatsiya – Ijtimoiy guruhlar yoki shaxslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish jarayoni.

Adaptsion liderlik – Guruh yoki jamiyat yetakchisining sharoitga qarab moslashish qobiliyati.

Alternativ muqobil tanlov – Shaxsning bir vaziyatda bir nechta turli ijtimoiy strategiyalarni tanlashi.

Adekvat qo‘zg‘ovchi – har bir sezgi a’zosining o‘zi uchun xos bo‘lgan alohida qo‘zg‘ovchi. Mas., ko‘z uchun yorug‘lik va ranglar, qulog uchun turli tovush to‘lqinlari A.k. bo‘lib hisoblanadi.

Adekvat aks etish (lot. adaequatus-tenglashtirilgan)-adekvat aks ettirish ob’ektiv voqelikdagi narsa va hodisilarni sezgi, idrok, tasavvur yoki tafakkur kabi bilish protsesslari orqali ongimizda to‘liq aks ettirilishi.

Adinamiya (yunon. a-inkor yu., dinamis-kuch) –organizning turli kasalliklarga chalinishi yoki uzoq vaqt ovqat yemaslik natijasida haddan tashqari holsizlanishi, zaiflanishi.

Aynanlik, o‘xshashlik - ikkita buyum yoki hodisaning bir- biriga o‘xshashligi.

Akalkuliya (yunon. A - inkor yuklamasi, calculatio - hisob, hisoblash) - bosh miya po‘tsloq qismi turli soxalarinnng jarohatlanishi natijasida hisoblash faoliyatining izdan chiqishi yoki butunlay yo‘qolishi.

Adolat –axloqiy, huquqiy, ijtimoiy –siyosiy ong kategoriyasi, u insonning daxlsiz huquqlari to‘g‘risidagi tarixan o‘zgarib kelgan tassavurlari bilan bog‘liq A. shaxslarning asli kimligi bilan ularning ijtimoiy mavqelari, huquqlari bilan burchlari, jinoyat bilan jazo o‘rtasidagi moslikni taqozo etadi bu nisbatlar buzilganda axloqsizlik kelib chiqadi.

Ajitatsiya (fr. agitation –kuchli xayajon, qo‘zg‘alish)-hayot uchun xavfli bo‘lib qolgan holda kishining unga javob tariqasidagi affektiv holati.

Ayzenk testi –o‘quvchilar umumiyligi qobiliyatini aniqlash metodikasi. U 40 savoldan iborat bo‘lib, bola 90 dan ortiq ball to‘plasa unda u qobiliyatli hisoblanadi. 60-90 ball to‘plasa umum ta’lim maktabida, 60 dan past ball to‘plasa yordamchi maxsus maktabda o‘qishga tavsiya etiladi. Ayzenk Georg Yurgen-(1897-1984) mashxur amerikalik psixolog. Bolalar aqliy qobiliyatini aniqlash bo‘yicha testlari muallifi.

Akalkuliya (yunon. a-inkor yu,calculatio-hisob, hisoblash bosh miya po‘stlog‘i ayrim qismining jarohatlanishi oqibatida hisob va hisoblash faoliyatidagi buzilishlar natijasidagi xatoliklar.

Akkomodatsiya (yunon. accomodatio-moslashish) – ko‘zning har xil uzoqlikda joylashgan narsalarni aniq ko‘rishga moslashushi. U ko‘z gavharining harakatlanib turishi hisobiga ro‘y beradi. Ya’ni u ko‘z gavharining egriligini o‘zgartirish yo‘li bilan uning aksini sindirib qaytarish qobiliyatini o‘zgartirishdir.

Akmeologiya (yunon. akme-yuksak pogona, ziyraklik, logos – ta’limot) tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvidan maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, sonnig

kamolotga erishish pogonasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o‘rganadigan fan.

Aks ettirish nazariyasi –inъikos nazariyasi, psixik hodisalar borliqni aks ettirishning shaqillaridan biri deb qaraladigan nazariya.

Aksedental qobiliyatlar (lot. aksedentio – tutib olish)-odamning xavf-xatarsiz, saranjom –sarishta faoliyatda bo‘lish qobiliyati. A.k. ning yoshlarning kasb tanlashi va kasbga yo‘llashda amaliy ahamiyati kattadir.

Akseleratsiya (lot. acceleratio-tezlanish) – bolalar va o‘smirlarda fiziologik voyaga yetishi va somatik rivojlanishning tezlashuvi.

Aktsentlash (yunon.-accentys-urg‘u) narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlarga nisbitan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

Aksioma (yunon. axioma –aniq, ochik narsa) –o‘z-o‘zidan ma'lum, isbot talab qilmaydigan haqiqat.Mas. Kuyosh yerni isitadi.

Akt (lot. actus–xulq, hatti-harakat)-organizmning turli-tuman harakatlari. Mas. sensor akt, ideomotor akt kabi.

Aktivizatsiya (lot. activus – faol, ishchan) - nerv tizimining qo‘zg‘alishi va reaktivlik darajasini tavsiflovchi holati Mas. dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish.

Aktogramma – organizmning muayyan harakatlarini aktograf yordamida grafik usulda irodalanishi.Mas. uyqu holatini

Aktograf- organizm turli harakatlarini grafik usulida yozib oluvchi asbob.

Aktografiya- organizmning harakatlarini grafik usulda yozib olish, irodalash haqidagi ta'limot.

Akumer (yunon akuo-eshitish, metran-o‘lchov) – eshitish qobiliyatini o‘lchaydigan asbob.

Aktuallash (lot.actualis-faol) – eslash, xotiraga keltirish maqsadida uzoq yoki qisqa muddatli xotirada o‘zlashtirib olingan materialni qayta esga tushirish faoliyati.

Alahlash –psixik qo‘zg‘alishning ko‘rsatkichi bo‘lib, noto‘g‘ri xulosa, fikr, qarashlarni tashkil etadi, uni tuzatib bo‘lmaydi

Algezimetru (yunon, algos-og‘riq,metron- o‘lchov)-og‘riq sezgilari o‘lchaydigan asbob.

Aleksiya (yunon.a-inkor yu,lego –o‘qiymen)- o‘qish qobiliyatiningbuzilishi yoki butunlay yo‘qolishidan iborat psixopatologik nuqson, ko‘pincha afaziya va agrafiya bilan birgalikda kechadi.Bu nuqsonning logopedik mashg‘ulotlar bilan bartaraf etish mumkin

Alogizm (yunon. a –inkor, logos-tushuncha, aql)– mantiqiy hamda ilmiy tafakkurning dunyoni bilish jarayonidagi o‘mini inkor qilib, haqiqatni faqat intuitsiya, ishonch yordamida bilish mumkin, deb isbotlashga o‘rganuvchi oqim.

Aks ettirish nazariyasi. in'ikos nazariyasi; psixik hodisalar borliqni aks ettirishning shakllaridan biri deb qaraladigan nazariya.

«**Alma –Mater**» (lot almamater –boquvchi ona)– qadimgi diniy oliygoh studentlari tomonidan shu o‘quv yurtiga nisbatan ishlatilgan ibora «A.-m» ko‘pincha odamlar o‘rtasidagi muomalada erkalash, xazil- mutoyiba, kinoya ma'nolarida ishlatiladi.

Altruizm (lot. alter –boshqa)- shaxs qabul qilgan qadriyatlar yo‘nalishlari tizimi bo‘lib, bunda uning ma'naviy bahosi mezoni va asosiy mohiyatida o‘zga odamning yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlari yotadi. fr.faylasufi O.Kont fanga kiritgan.

Amaliy tafakkur – ko‘pincha vaqt tanqisligi sharoitida yuzaga keladigan va hatti harakatlarning maqsadini aniqlash. Reja loyihalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq.

Amorf (yunon. Amozphos) - shakllarning rad etilishi.

Ambivalentlik (yunon ambi – tevarak, ikki tomondan, lot. valentia – kuch) – bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo‘lishi. Mas. qo‘lgu va qayg‘u, A.shaxsdagi ichki nizolarning paydo bo‘lishi.

Ambitsiya (lot. ambitio-manmanlik)- o‘ta o‘zini sevish, o‘z-o‘zi bilan faxrlanish, o‘z-o‘ziga baho berish.

Amneziya (lot. a-inkor etish, mnesus-xotira) - ma'lum davrning voqeasi va kamchiliklarini eslay olmaslik yoki chala eslashedi. bosh miyaning ko‘pgina kasallarida uchraydi. A. holatida kishi ba'zan o‘z ismi va familiyasini ham unutishi mumkin. Kasallik bosh miya po‘stlog‘ining zararlanishi natijasida sodir bo‘lishi mumkin.

Amordo (yunon.-amorphos)-shaklning rad etilishi.

Amplituda (lot. amplituda-kenglik) – psixik funktsiya yoki jarayonlarning sifat va miqdor jihatidan tebranish chegarasi. Mas. ba'zi jarayonlarning amalga oshirishdagi eng ko‘p va eng oz miqdori.

Amulet (lot. amuleum-osib yuriladigan narsa) - yomon ko‘zdan asrasin, mushqo‘lni oson qilsin deb, odamlarning bo‘yniga qo‘liga taqib yuradigan tumor, ko‘zmunchoq, bant. va x.k.

Analizator (yunon. analusis- bo‘laqlarga ajratish) – insonga ta'sir etib, qo‘zg‘atuvchilarni tahlil etilishi va idrok qilinishning ta'minlovchi murakkab nevrofiziologik tizim. Uning tarkibiga retseptör, uni miya bilan bog‘lovchi nerv to‘qimalari, miya impulsalarida yuzaga keltiruvchi maxsus qismlar kiradi.

Analizatorlarning o‘zaro ta’siri – odamdagи sezgilar sohasи birligining namoyon bo‘lishi A.U.T. tufayli inson tashqi olamni to‘liq aks ettiradi. Mas. odam obektning o‘zidan uzoqlashishni ko‘radi. Proprioretseptiv analizatorlar orqali borliqdagi narsa va hodisalarni bilib oladi.

Analitik psixologiya – chet el psixologiyasidagi oqim. 1913 yili Yu.T.Yung asos solgan. Psixikani ideolistik talqin etib, uni ong bilan g‘ayri shuuriylikning o‘zaro kompensatsiyasiga asoslangan o‘zini-o‘zi boshqaruvchi sistema deb qaraydi.

Analogiya (yunon. analogia-o‘xshashlik)- psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o‘xshashligi.

Analgeziya (grek. Analges-og‘riqsizlantirish)– og‘riqni sezishni qisman yoki to‘liq yo‘qolishi.

Anglashilmovchilik – aytilgan talab, iltimos va buyruqning ma’nosи sheriklar uchun tushunarli bo‘lmasligi. Bu holat o‘zaro hamjihatlikka to‘sqinlik hosil qiladi.

Androginiya (lot. andros-erkakga xos gunes-ayolga xos) – ayol va erkaklarga xos bo‘lgan psixik sifatlarga ega bo‘lgan tushuncha. Tushunchani amerika psixologi S.Bem kiritgan.

Anesteziya – sezuvchi nervlarning shikastlanishi natijasida sezuvchanlikning yo‘qolishi.

Anergiya (yunon a-inkor yu.,ergon-ish) – kishidagi faol harakat qilish qobiliyatining buzilishi yoki butunlay yo‘qolishi.

Anketa- ko‘zlangan maqsadga doir ma'lumot olish uchun tuzilgan savollar to‘plami.

Anketa surovi – anketa yordamida o‘tkaziladigan pedagogik-psixologik tadqiqot usuli.

Animizm – (lot. anima-jon)-odamzot, hayvonot, o‘simlik va mavjudotlarning mustaqil joni borligi haqidagi tasavvur tizimi A. ibridoiy va hozirgi dirlarning asosiy elementidir.

Aniqlovchi tajriba – ilmiy izlanishlardagi o‘rganilishi zarur bo‘lgan muayyan psixik hodisalarning tekshiriluvchida qay darajada mavjudligini aniqlash maqsadida tashkil qilinadigan tajriba. A e dalillari hosil qiluvchi tarkib topshiruvchi tajriba uchun asos bo‘ladi.

Anomal rivojlanish psixologiyasi- nuqsonli bolalarning aqliy, jismoniy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni o‘rganuvchi soha.

Anomaliya (yunon anomalia-notekislik)- kamol topishning umumiy qonuniyatlaridan chetga chiqish.

Anesteziya (yunon anaesthesia –sezgisizlik, sezmaslik) –nerv tizimining kasallanishi oqibatida sezgirlikning yo‘qolishi.

Anergiya (yunon. a-inkor yuklamasi, ergon-ish mehnat) kishidagi faol harakat qilish qobiliyatining buzilishi yoki butunlay yo‘qolishidan iborat psixopatologik holat.

Afsus-nadomat - shaxsiy aybni bilish, o‘zining o‘tmishi, xozirgi kundagi kamchiliklariga, salbiy munosabat bildirish.

Antitsipatiya (lot.anticipatio –oldindan sezish, payqash) –odamning hodisalar rivoji, hatti-harakati natijalarini oldindan ko‘ra olish qobiliyati.

Antromorfizm (yunon. anthropos-odam, morphe-shakl) –hayvonlarda odamga xos psixik xususiyatlar va qobiliyatlar borligi haqidagi tasavvur.

Antropogenez (lot. anthropos- odam, genesis –tug‘ilish)-odamning kelib chiqish jarayoni, uning evolyutsion tarixi.

Antik psixologiya (lot antiguu –ibtidoiy, kadimiy)- eramizdan VII-V-asr oldingi qadimgi Gretsya, Rim Xitoy va Hindistonda psixika haqidagi ta’limotlarni o‘rganuvchi soha.

Antipatiya (yunon. antipotheia-kungilsizlik, xushlamaslik,yoktirmaslik) - biror narsaga yoki kimsaga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatdan kelib chiqadigan va uni irodalaydigan yoqimsiz hissiyot.

Antitsipatsiya (lot, anticipatio oldindan bilish, payqash) odamning xodisalar rivoji, xatti - harakat natijalariii oldindan ko‘ra olish qobiliyati.

Antropometriya (yunon. antros-odam, metrio -ulchayman) –odam tanasining ayrim qismlarini, ularni oldindan belgilangan namunalarga taqqoslab o‘rganuvchi antropologik va tibbiy tekshiruv usuli

Antropomorfizm- faqat insonga xos bo‘lgan qobiliyat va psixik xususiyatlarni hayvonlarda ham mavjud deb tasavvur qilish. U inson siyemosini ilohiylashtiradi.

An'ana- avloddan-avlodga o‘tib boradigan qadriyatlar, g‘oyalar, urf-odatlar, marosimlar va x.k.

Apatiya- charchash, og‘ir his-tuyg‘u yoki kasallik oqibatida qiziqishning so‘nishi, atrofdagilarga nisbatan befarq bo‘lish, ma'yuslik kabi ruhiy holatlar.

Appertseptsiya (lot.ar-ga, qarashli, percptio-idrok)- shaxs idrokning oldingi tajriba, bilim va umumiyl yo‘nalganlikka bog‘liqligi.

Apraksiya (yunon. apraxia – harakatsizlik)-bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘idagi ba'zi nerv markazlarining zararlanishi oqibatida odatdagи harakatlarni bajarishning buzilishi yoki yo‘qolishidan iborat psixopatalogik nuqson.

Artikulyatsiya (lot. articulatio –dona-dona qilib, aniq talaffuz qilish) - nutq a'zolari (lablar, til, tanglay, tovush naychalari)ning muayyan nutq tovushini talaffuz qilish uchun zarur bo‘lgan faoliyati.

Asab tizimi – hayvon va odam organizmining barcha funktsiyalarini o‘zaro hamda tashqi muhit bilan moslab, uyg‘unlashtirib turuvchi a’zolar tizimi. U organizmning ichki muhitida ro‘y beradigan o‘zgarishlar va tashqi muhit ta’sirida qo‘zg‘alib, turli a’zolarga ta’sir etgan holda ularning faoliyatini kuchaytirib yoki susaytirib turadi.

Asabiy - salga jahli chiqaveradigan ,bo‘lar-bo‘lmasga qizishib, tutaqib ketadigan kishilar.

Asketizm – zoxitlik, axloqiy kamolotga erishish va xudoga yetishish uchun o‘z-o‘zini puxta bilish va barcha hissiy mayllarga qarshi ko‘rashishni targ‘ib qiluvchi ta’limot.

Assotsiatsiya (lot. associatio- birlashtirmok) –psixik hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘lanish, u ma'lum qonunlar bo‘yicha tarkib topadi. (Jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik o‘xshashlik, qarama-qarshilik va b.)

Assotsiativ psixologiya- XVII-XIX asrlarda paydo bo‘lgan psixologiyaning yo‘nalishlaridan biri. Unga ko‘ra psixik hayotning asosiy tamoyili assotsiatsiya tushunchasidir. U ko‘proq Angliyada tarqalgan.

Assotsiativ tajriba - kishi psixik holatining tajribalar hosil qilgan assotsiatsiyalarini aniqlashga qaratilgan tajriba metodi. A.t. birinchi marta nemis psixologi V.Vundt tomonidan qo‘llanilgan.

Assotsionizm – inson psixik hayotini ayrim ruhiy (hodisalar) jarayonlarning mexanik yig‘indisi sifatida talqin etuvchi psixologik ta’limot. Ilmiy-g‘oyaviy mohiyati jihatidan turlicha bo‘lgan psixologik oqimlar yig‘indisi.

Assotsiativ eksperiment – yashirin (yopiq), affektiv komplekslarni aniqlash usuli, shveytsar psixologi K.G.Yung tomonidan taklif qilingan.proyektiv testlar.

Asteniya (yunon. asthenea-holsizlik) kuchli toliqish, sezgirlikning susayishi, kayfiyatning beqarorligi, uyquning buzilishi bilan ifodalanuvchi ruhan sustlik, ojizlik holati. Unga uzoq muddat spirtli ichimlik ichish natijasida hosil bo‘ladigan ruhiy sustlik misol bo‘ladi.

Astenik (yunon.astheneia-holsizlik, kuchlisizlik) biror psixopotologik sababga ko‘ra jismoniy yoki psixik tomonidan ojiz yoki sust bo‘lib qolgan odam.

Astenik hislar- kishining faoliyatini g‘ayrat va shijoatini susaytiradigan salbiy hislar. Umidsizlikda, tushkunlikda ro‘y beradi.

Atavizm - qadimgi ajdoddarda bo‘lgan belgilarni bir necha avlodda yo‘qolib ketib, keyinchalik yana paydo bo‘lishi.

Ataktsiya- (yunon. ataxia-tartibsizlik) miyacha va bosh miya peshona qismlari va bosh miya shikastlanishi natijasida harakatning buzilishi.

Ateizm-(yunon. a-inkor yuk, theos-xudo)-xudoning g‘ayri tabiiy kuchlar va narigi dunyoning «borligini» ilmiy dalillar asosida inkor qiluvchi ta’limot.

Atribut-(lot atributum-birlashtirish,jamlash) narsa va hodisalarning tasodifiy, o‘tkinchi belgilaridan farq qiladigan zarur, eng muhim ajratib bo‘lmaydigan xususiyatlari.

Atrofiya- (yunon. atripio-ozmok, xastalanmok)-ma'lum bir psixopotologik sabablarga ko‘ra idrok , aql va hissiyotning pasayishi, biror a'zoning uzoq faoliyatsizlik yoki ozuqasizligi natijasida kichrayishi yoki hayotiy qobiliyatini yo‘qotishi.

Attraktsiya – (fran.attraktion –qiziqmok, intilmok)- kishini boshqa kishi tomonidan qanday qabul qilinishini belgilovchi tushuncha, ya'ni bir kishini ko‘rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

Audometr-(lot.audire-eshitmok, yunon. metrio-ulchayman) eshitish sezgisining kuchini aniqlaydigan asbob.

Audometriya-har xil balandlikdagi tovushlarga nisbatan eshitish sezgilarining quyi chegaralarini o‘lchaydigan maxsus asbobjidir.

Audivizual idrok-(ing.audio-eshitmok,vision-ko‘rmok)- ko‘rish va eshitishni bir paytda idrok qilinishi.

Autogen mashq – (yunon.autos o‘zim,denos- kelib chikaman) psixoterapiya usuli. Bunda bemor o‘zini-o‘zi ishontirish yo‘li bilan jismoniy va ruhiy holatiga ta'sir ko‘rsatishni o‘rganadi.

Autizm (yunon.auto-o‘zim)-individning o‘zini atrofdagi odamlardan chegaralab, o‘zining kechinmalariga berilishdan iborat psixologik begonalashuv.

Autosaydr- (ing.autsider-begona) ijtimoiy psixologiyaning atamasi bo‘lib, psixologik sig‘isha olmaganligi tufayli guruh tomonidan inkor etilgan a'zo, kishi.

Afaziya- (yunon.a –i. yuk. phasia-nutq)- eshitish a'zolarining sog‘lom bo‘lgani holda nutq faoliyatining buzilishi. Bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining shikastlanishi natijasida paydo bo‘ladi.

Afsungar-qattiq qo‘shiq aytish, o‘yinga tushish, childirma chalish kabi turli usullar bilan o‘zida haddan tashqari kuchli hissiyot hosil qilib, ko‘zga ko‘rinmas «ruh»lardan, go‘yoki kishilarning dardidan, gunohlaridan kechishni iltimos qiluvchi, shu orqali foyda ko‘rvuchi dindor kishi.

Affekt- (lot. affektus –ruhiy hayajon, ehtiros)-kuchli, tez va jo‘shqin kechuvchi, nisbatan qisqa muddatli, his-xayajonli, irodaviy nazorat yo‘qotilgan ruhiy holat.

Afferentatsiya-(lt.affersns-keltiruvchi) tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilar orqali sezgi a'zolariga ta'sir etish asosida paydo bo‘lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni hisoblanadi.

Afferent nerv- sezgi a'zolaridan nerv impulsini markaziy nerv sistemasiga o‘tkazuvchi nerv tolasi, uning sinonimi sezgirlik. .

Affiliatsiya- (ing.to affiliate-qo‘shilmok)-kishining boshqa kishilar guruhida bo‘lishga intilishi.

Axloq - shaxsning jamiyatta va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy hulq qoidalari. A. ijtimoiy ongning o‘ziga xos turi bo‘lib, odamning jamiyatdagi rolini belgilab beruvchi asosiy omillardan.

Axloqiy barkamollik - eng olivjanob xarakter xislati, xar qanday sharoitda ham axloqiy talablariga qat'iy rioya qilinadigan ahloqiy e'tiqod.

Axloqiy tuyg‘u- shaxsning boshqa odamlar axloqi va o‘z shaxsiy xulqiga emotsiyal munosabati.

Axborot-(lot.informare-xabar, darak berish)-ob'ktiv voqeilikdagi narsa va hodisalarning, ichki organlarda hosil bo‘lgan fiziologik xabar signali.

Axborot tengligi-(lot.informare-xabar qilish, fr.balanse-muvozanat)- shaxsning ma'lum muhitda normal psixik hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan ob'ektiv vogelikdan olinadigan sub'ektiv taassurotlar minimumi. Agar A.t. buzilsa, A. ga muhtojlik boshlanadi.

Axborotga muhtojlik- shaxsning muayan ob'ektiv yashash sharoitlarida voqeilikdan olinadigan subektiv taassurotlarga muhtojligini sezishdan iborat holati. Mas. norozilik, qo‘msash va x.k.

Aql- odamning sezgi va irodasidan farq qiluvchi bilish psixopotologlari ,fikrlash va tushunish qobiliyatida aks etadigan, haqiqatni nazariy o‘zlashtirishning oliy ko‘rinishi.

Aql mustaqilligi-shaxsni muammoli vaziyatda yechilmagan masalani ko‘ra olishi, masalani belgilab olishi va yechishning yangi usulini topa olishi, o‘z fikrin izchil himoya qila olishi.

Aql kengligi –masalani yechish uchun boshqa sohalardagi bilimlarni qo‘llash imkoniyatilari.

Aqliy mulk- fuqaro yoki yuridik shaxsning ilmiy texnik va aqliy ijodiy faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan yuridik shaxsning yakka tartibdagи vositalari mahsulotlar bajarilgan ish va xizmatchilar yagonaligiga tanho huquqidir.

Aqliy hujum- ijodiy faollik va mahsuldorlikni oshiruvchi metodika. Odatdagи muhokama ijodkorlikka to‘siq bo‘ladi. Aqliy hujumda guruhning har bir a'zosi o‘z fikrini erkin bildirishi mumkin. Ular orasidan eng muhimlari ajratiladi.

Ajal-inson organizmi hayot faoliyatining tugashi.

Aql chuqurligi – kishining tekshirilayotgan hodisaning mohiyatiga kirib bora olish darajasi.

Aqlning ixchamligi-tafakkurda masalani yechishning yangi, qulay usulini topishi.

Aqliy faoliyat-insonning o‘z ongida ichki rejada tashqi vositalarga tayanmasdan bajaradigan faoliyati.

Aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish kontseptsiyasi- insonda faoliyatlar, timsollar va tushunchalar hosil bo‘lishiga bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘pqirrali o‘zgarishlar haqidagi ta’limot. Uning asoschisi rus psixologi Galperin hisoblanadi.

B

Bag‘rikenglik – Boshqa shaxs yoki guruhlarning nuqtai nazari, urf-odatlari va e’tiqodlarini hurmat qilish qobiliyati.

Baholash (ijtimoiy baholash) – **Odamlarning o‘zini yoki boshqalarni ijtimoiy me’yorlar asosida baholash jarayoni.**

Baxtiyorlik (ijtimoiy baxtiyorlik) – Shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyatlari va ijtimoiy munosabatlaridan qoniqish darajasi.

Balandlik kompleksi – O‘zini boshqalardan ustun deb hisoblash tendensiyasi.

Barcha uchun manfaatlilik tamoyili – Guruh yoki jamiyatda umumiylar farovonlikni oshirishga qaratilgan yondashuv.

Barcha uchun muhim bo‘lgan qaror – Jamiyat yoki guruh uchun muhim bo‘lgan kollektiv qaror qabul qilish jarayoni.

Barcha uchun teng imkoniyat – Ijtimoiy tenglikni ta’minalashga qaratilgan printsip.

Barcha uchun javobgarlik – Guruh yoki jamiyat a’zolarining kollektiv javobgarlik tamoyiliga rioya qilishi.

Beqaror ijtimoiy holat – Shaxs yoki guruhning ijtimoiy barqarorlikka ega bo‘lmasligi.

Beqarorlik sindromi – Guruh ichidagi tartibsizlik yoki notinchlik holati.

Befarqlik effekti – Odamlar favqulodda vaziyatda boshqalarga yordam berishdan bosh tortish tendensiyasi.

Befarqlik ijtimoiy muammosi – Jamiyatda ijtimoiy masalalarga nisbatan e’tiborsizlik va beparvolik.

Beqaror ijtimoiy o‘zaro ta’sir – Odamlar o‘rtasidagi muloqot yoki aloqalarning uzoq davom etmasligi.

Beg‘amlik holati – Jamiyatning muammolariga befarqlik yoki e’tiborsizlik.

Beqaror psixologik muhit – Guruh yoki jamiyatda notinchlik yoki o‘zaro ishonchszlik hukm surishi.

Begonalik hissi – Insonning o‘zini jamiyat yoki guruhdan chetda his qilishi.

Belgilangan rol – Guruh a’zosiga ijtimoiy vazifalar doirasida yuklangan ijtimoiy rol.

Benlik (menlik) konsepsiysi – Shaxsning o‘zini jamiyatdagi o‘rni va munosabatlar doirasida anglash darajasi.

Benlikni taqdim etish – Odamlarning boshqalar oldida o‘zini qanday ko‘rsatishi va taqdim etishi.

Berilgan sotsial status – Tug‘ilgan paytda yoki irsiy omillar tufayli insonga berilgan ijtimoiy mavqe.

Bo‘ysunish (konformizm) – Shaxsning guruh yoki jamiyat talablariga muvofiq harakat qilishi.

Bo‘ysunish sindromi – Odamlarning o‘z qarashlaridan voz kechib, ko‘pchilik fikriga ergashishi.

Boshqariladigan xulq-atvor – Shaxsning ijtimoiy normalar asosida o‘zini tutishi.

Boshqaruв uslubi – Yetakchilik jarayonida liderning qanday strategiya qo‘llashi.

Boshqaruvchi guruh – Jamiyat yoki tashkilotda qaror qabul qiluvchi asosiy guruh.

Boshqaruв omillari – Jamoada yoki guruhda ta’sir ko‘rsatadigan psixologik va ijtimoiy omillar.

Boshqalarga bog‘liqlik – Odamlarning o‘z qarorlarini boshqalarga bog‘lash tendensiyasi.

Boshqalarning ta’siri – Guruh yoki jamiyatda shaxsning qarorlariga ta’sir ko‘rsatish jarayoni.

Boshqalarning fikrini inobatga olish – Odamlarning ijtimoiy muhitdagi boshqa shaxslarning fikrlariga ahamiyat berishi.

Boshqalarga yordam berish motivatsiyasi – Insonlarning boshqalarga yordam berishga bo‘lgan moyilligi.

Boshqalarga taqlid qilish – Guruh yoki jamiyatda shaxsning boshqa odamlarning xulq-atvorini takrorlashi.

Boshqaruв subyekti – Jamoani yoki tashkilotni boshqaruvchi shaxs yoki guruh.

Boshqaruvdagи psixologik mexanizmlar – Jamoada qaror qabul qilish va yetakchilik qilish jarayonlari.

Boshqaruvdagи muvozanat – Jamoada yoki tashkilotda rahbar va a’zolar o‘rtasidagi tenglik va uyg‘unlik.

Boshqaruvdagи ijtimoiy ta’sir – Yetakchining jamoaga ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik ta’siri.

Bo‘ysunuvchan shaxs – Boshqalarning talablariga osongina moslashadigan yoki itoat qiladigan shaxs.

Bo‘ysunish ierarxiyasi – Guruh yoki jamiyatda hokimiyat tuzilmasi asosida bo‘ysunish darajalari.

Bavositalik-borliqdagi narsa va hodisalarning yordamchi vositalarini qo‘llash orqali namoyon bo‘ladigan bilish usuli .Mas. haroratni termometr orqali aniqlash.

Badgumonlik- har narsaga shubha bilan qarash, gumon qilaverishdan iborat salbiy xarakter hislati.

Badiiy tip - I.P.Pavlov tomonidan birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro nisbatiga qarab aniqlangan «Insonlarga xos maxsus» tip bo‘lib, bu tipdagi kishilar ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasidan ustun turadi.

Barqaror diqqat-uzoq muddatgacha biror narsani o‘ziga qarab bilib tura oladigan diqqat turi.

Bashoratgo‘ylik- sezgi a’zolari va aqliy tafakkurga asoslanmagan holda tashqi olamning ob’ektiv hodisalari haqida bilimga ega bo‘lish, oldindan ko‘ra olish, oldindan aytib berish.

Bevosita esga tushirish- narsa va hodisalar, fikrlar, harakatlarni idrok qilgandan keyinoq, oradan vaqt o‘tkazmay, esga tushurishdan iborat xotira protsessi.

Belgi-sezgi a’zolarimiz orqali idrok qilinadigan narsa va hodisalar yoki muloqot jarayonidagi hatti-harakatning belgisini o‘tovchi narsa yoki hodisa.

Beqaror diqqat- barqaror diqqatning qarama-qarshisi, ya’ni uzoq muddatgacha diqqatni qarata bilmaslik.

Behushlik-haddan tashqari kuchli ta’sir natijasida turli psixik yoki psixopatologik sabablarga ko‘ra aqlning kochishi.

Bilim –voqelikni o‘rganish natijasi. U amaliyotda sinalgan bo‘lib, voqelikni inson tafakkuridagi to‘g‘ri in’ikosidir

Bilim saviyasi-shaxsning tabiat, jamiyat va inson psixikasi haqidagi tasavvur tushunchalari yig‘indisi.

Bilingvism-(lot.bi-ikki,lingua-til) ikki tililik, ikki tilni mukammal bilish.

Bilish – ijtimoiy tarixiy amaliyot taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda voqelikni inson ongida aks etishi va takroran tiklanish jarayoni. Sub’ekt bilan ob’ektning o‘zaro ta’siridan iborat bo‘lib, natijada yangi bilimlar yuzaga keladi.

Bilishga qiziqish- shaxsning voqeilikdagi narsa-hodisalarni ularning sifat va xususiyatlarini, turli qonuniyatlarni bilib olishga nisbatan doimiy barqaror yo‘nalishdan iborat individual xususiyati.

Bilishga ehtiyoj- bilimlarni yoki fan asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qondirilmagan muhtojlikni sezishdan iborat faoliyat motivi.

Bilish jarayoni-sezgi, idrok, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va nutq kabi psixik protsesslarning organik sistemasi.

Binokulyar idrok- ikki ko‘z yordamida ko‘rish, narsa va hodislarni ularning fazoda tutgan o‘rni, shakli, va bir-biriga nisbatan munosabatlarini ikki ko‘z yordamida idrok qilish.

Bine Simon testi-bolalar aqliy rivojlanishini Bine va Simon tomonidan aniqlandi. **Bine Alfred** (1857-1911)-fr. psixolog. Frantsiyada eko-l psixologiya va psixologiya labaratoriya asoschilaridan biri.

Biogenetik qonun – (yunon.bios-hayot, genetikos-tug‘ilishga, kelib chiqishga oid) bolaning psixik taraqqiyotini, aqliy qobiliyatlarini, rivojlanishida tana rivojining ontogenez va filogenez munosabatlarini bola psixik rivojlanishida ko‘chishini inkor etuvchi ta’limot.

Biografik usul – shaxs tarjimai holini kundalik va xatlari va h.k. ni o‘rganish orqali shaxsni o‘rganish usuli.

Birinchi signal tizimi- voqelikni sezgi va tuyg‘ular tarzida bevosita aks ettirish shaklidir.narsa va hodisalarning sezgi a’zolariga ta’sir ettirish natijasida bosh miya yarim sharlarida hosil bo‘ladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari. U sezgi va idrokda namoyon bo‘ladi.

Bixevoirizm (ing. behaviour-xulq)-XX-asr Amerika psixologiyasidagi yetakchi oqim. Uningcha psixologiyaning asosiy vazifasi inson ongini emas, balki xulqini o‘rganish bo‘lib, xulq tashqi muhit ta’sirotiga ko‘rsatiladigan harakat reaksiyalari va ularga tenglashtirilgan so‘zli va emotsiyonal javoblar majmuidir. Uning asoschisilari E.Torndayk va D.Uotsondir.Bixeoviorizm so‘zini va dasturini D. Uotson taklif etgan.

Bolalar serebral falaji- homila davrida bosh miyaning zararlanishi, tug‘ruq vaqtida boshning shikastlanishi va go‘daklikdagi turli kasalliklar oqibatida kelib chiqadigan kasallik.

Bolalar psixologiyasi-psixologiyaning turli yoshdagи bolalar psixik taraqqiyoti qonunlarini o‘rganadigan maxsus soha.

Bolalik-ontogenezning boshlang‘ich davri, bola tug‘ilganidan to balog‘at yoshigacha yetguncha bo‘lgan davri.

Binoraual effekt- odam yoki hayvonning tovush chiqqan tomonni qulog‘i bilan aniqlay ola bilish qobiliyati.

Bumerang samarasi – beriladigan axborot, tashviqotlardan ko‘zlangan maqsad o‘rniga uning teskarisiga erishish.

Burch-shaxsning axloqiy vazifasi bo‘lib, u odamda vijdanni, qat’iylikni uyg‘otadi.

Borliq-ob’ektiv olamning ongdan holi bo‘lgan holda mavjudligini bildiruvchi falsafiy tushuncha.

Boshqarish-tabiatning turlicha bo‘lgan biologik, texnik, tizimlari va funktsiyalarini bajarishga qaratilgan jarayon.

Boshqarish psixologiyasi –psixologiya fanining boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi sohasi.

Bosh miya-markaziy nerv sistemasining old (yuqori, oliv) qismi bo‘lib, u bosh miya qobig‘ida joylashgan oliv nerv tizimining moddiy asosi.

Bosh miya funktsional asimmetriyasi – miya uning va chap yarim sharlari orasida psixik funktsiyalarning taqsimlanish tavsifi.

Bosh miya katta yarim sharlari- qadoqsimon tana yordamida oxirgi miyaga birlashgan juft tuzilmalar. Bosh miya katta yarim sharlari yuzasida chuqur bo‘lmagan unkir-cho‘nqirlar mavjud.Bosh miya katta yarim sharlari peshona, tepa, chakka, orolcha, ensa qismlariga bo‘linadi.

Bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘i-markaziy nerv sistemasining oliv tarkibi va funktsiyasi jihatdan eng murakkab bo‘lim. Sut emizuvchilar va odam bosh miya katta yarim sharlarini qoplab turuvchi kulrang modda qatlami.

Brayl tizimida o‘qitish – ko‘rlarni burtma, nuqtali, harflarga asoslanib o‘qitish tizimi.

Brodman maydonlari- inson bosh miya qobig‘ining hujayra qatlamlari jihatdan har xil tuzilgan joylari. Nemis psixiatri Brodman uni asoslab bergen.

Brokka markazi-miya qobig‘ining bir o‘rni bo‘lib, frantsuz antropologi va jarrohi Brokka afaziya hodisalarini tekshirgan vaqt (1861) dan boshlab nutqning effektor funktsiyalari shu markazga bog‘lab tushuntiriladi. B.m. bosh miya uchinchi chap burmasining pastki qismida joylashgan.

Ierarxiya-(yunon.hieros-mukaddas, arche-xoqimiyat) narsa va hodisalarni ketma-ketlik bilan bir-biriga teng bo‘ysundirish usuli.Mas.motivlar I.si.

Ikkilanish- ijod jarayonida «Ha», «Yo‘q» larni bir-biriga taqqoslash natijasida yuz beradigan tafakkur turi.

Ikkinci signal tizimi – insonga xos shartli reflektor bog‘lanishlar tizimi bo‘lib, nutq signallari ta’sirida, ya’ni bevosita ko‘zg‘atuvchini emas, balki so‘zning ta’sirida shakllanadi. I.S.T. umumlashgan mavxum tafakkur asosidir. Odamlar o‘rtasidagi muomala jarayonida, birinchi signal tizimi asosida vujudga keladi. Odamning tashqi olamni anglashi va faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu tushunchani fanga 1932 yilda I. P.Pavlov kiritgan.

Ikkinchı tartibli ixtiyoriy diqqat-ongimizning ob'ektga ixtiyorsiz ravishda yo'naltirilganda, uning ustida ma'lum vaqt barqaror holda, to'planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi.

Illyuziya (lot.illusio-aldash)- borliqning, voqelikning noto'g'ri idrok etilishi, idrokning chalg'ishi. Sezgi a'zolari takomillashganmaganligi natijasidagi qo'rquv.

Illyuzionizm-(fr.illusionisme-aldash)- tashqi dunyo faqat ko'zga shunday ko'rinadigan, aslida esa sezgi a'zolarining aldanishidan iborat.

Ilhom – tarkibi ijodiy tafakkur va stenik ruhlanishdan iborat bo'lgan ruhiy holat.

Imbetsillik (lot.imbecillus-ojiz,aqli past)– oligofreniyaning debillikdan og'irroq shakli, psixik jihatdan bir qadar rivojlanmay qolish. Bunday bolani o'qitib bo'lmaydi.

Imidj (ing.image-obraz)-shaxsning boshqalar tomonidan tan olinadigan o'ziga xos xususiyatlari.

Immunitet –(lot.immunitas-biror majburiy narsadan ozod bo'lish, holis bo'lish) kishi tanasining kasalliklar yukishiga qarshilik ko'rsata olish xususiyati.I. termini ba'zan befahtlik, o'quvsizlik ma'nosida ham ishlatiladi.

Impulsivlik- (lot.impulsus-turtki, mayl) birinchi tashqi turtki yoki his-tuyg'ular ta'siradayoq, o'ylab o'tirmay, ma'lum so'zlarni aytib yuborishga moyillik ifodalananadigan xarakter hislati.

Implikatsiya- (lot. implicatio-chatishish, chigallashish) «agar», «unda», «bunda» kabi bog'lovchilar yordamida ikkita murakkab gap fikrini bir-biriga mantiqan bog'lash operitsiyasi.

Implantatsiya – tananing biror qismi, to'qimalari yoki yaxlit bir a'zosini ko'chirilishi va tanaga moslashib ketishi.

Impressiv nutq (fr.impression-taassurot)-o'zgalar nutqini tasavvur qilish, tushunishdan iborat nutq turi.

Impul'siv harakatlar – beixtiyor yoki qisman ong bilan yetarli nazorat qilinmay amalga oshiriladigan harakatlar asosan bolalarga xosdir.

Individ (lot.individuum-bo‘linmas,ayrim jins, shaxs)-biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Individuallik – kishining o‘ziga xosligini, uning boshqalardan farqini aks ettiruvchi psixik xususiyatlari.

Individual yondoshish-odamga uning individualligini hisobga olgan holda yondashishdan iborat pedagogik usul.

Individual munosabat-har bir shaxsning aqliy, madaniy va bilim darajasini, yoshlik hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muomala-munosabatda bo‘lish

Individuum-(lot.individuum-bo‘linmas, alohida jins, shaxs) –mustaqil organizm, tirik mavjudot, odam.

Individual ong- ijtimoiy ongdan farqli ularok, har bir shaxsning o‘ziga xos bo‘lgan ong xususiyatlari.

Individual rivojlanish- har bir individning, shuningdek shaxsning o‘ziga xos jismoniy va psixik rivojlanishi.

Individual xususiyatlar- ma'lum bir shaxsning faqat o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlar.

Indeterminizm (lot.in- in.yuk.-determinare-aniqlamok, belgilamok)- determinizmga karama-qarshi ularok, tabiat, jamiyat va ong hodisalarining ob'ektiv sabablar bilan belgilanishini inkor qiluvchi sub'ektiv idealistik falsafiy oqim.

Inert-(lot.iners-faoliyatsizlik, harakatsizlik)- faoliyatda suskashtlik ko‘rsatishdan iborat salbiy xarakter hislati.

Indifferentizm (lot.indeferens – befarq)-atrofdagilarga ,ayniqsa kishilarga befarq munosabatda irodalanadigan salbiy xarakter hislati yoki psixopotologik holat.

Induktiv xulosa chiqarish-ikki va undan ortiq yakka hukmlarning bir-biri bilan mantiqiy bog‘lanishidan umumiyluk hukm hosil qilishdan iborat xulosa chiqarish turi.

Induktor-(lot. induktor-qo‘zg‘ovchi, undovchi)-psixologik tajribalarda fikran berilgan buyruqlarni bajarishda uni yetaqlab yuruvchi odam .

Induktsiya-(lot. industio- keltirib chiqarish) juz'iy yoki yakka hollarda umumiyya, ayrim faktlardan umumlashmalarga qarab boradigan induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur formasi.

Insonparvarlik-odamni sevish va uning qadr-qimmatini hurmatlashdan iborat ijobiy xarakter hislati.

Insoniylik psixologiyasi-psixologiya yo'nalishi bo'lib, o'z tadqiqodining bosh yo'nalishi sifatida shaxs kechinmalari va uning qaytarilmasligini tan oladi.

Instinkt (lot.instinctus-ichki mayl, intilish)-organizmning tashqi yoki ichki ta'sirotlar natijasida paydo bo'ladigan murakkab tug'ma harakatlari majmui, murakkab shartsiz refleks (ovqatlanish, himoyalanish, jinsiy instinkt va b.) Odamda instinkt uning ongi bilan boshqariladi.

Integratsiya (lot. integer-butun)-o'zviy bog'liqlik, butunlik, birlik, ma'lum jarayonlar, faoliyat turlarining birlashuvi.

Intervyu-(interview-suhbat, uchrashuv)-bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga javob olish orqali ma'lumotlarni to'plash va o'rganish usuli.

Intelligentsiya-(lat.intelligens-tushunuvchi, aqlii) ilm va majaniyatning turli sohalarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan aqliy mehnat xodimlari.

Interiorizatsiya (lot.interior-ichki)-ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyatdan kelib chiqishi, tashqi harakatlarning ichki harakatlarga, tushunchalarga aylanish jarayoni.

Internatsional hislar- turli mamlakatlarning xalqlari o'rtasidagi sinfiy birdamlik va dustlik aloqalari munosabati bilan shaxsda paydo bo'ladigan hamda kechadigan his-tuyg'ular.

Interoretseptorlar-(lot.inteior-ichki, recipere-qabul qilmok)-mushaklarda, paylarda, ichki organlarda va kon tomirlarda joylashgan retseptorlar.

Intellekt (lot.intellestus-tushunish, mulohaza, tushuncha)-insonning umumiyligi bilish faoliyati, insonning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, aqli.

Intelligentlik (lot.intelligens—aqlii, tushunadigan)-jamiyat talablariga javob beradigan ilg'or insonlar yurish-turishi, muomalasi, qiyinishi, odobi, didi.

Interferentsiya (lot.inter-orasida, ferens-olib yuruvchi)boshqa materiallarni o‘rganishi, qo‘llashi natijasida yosga olinadigan materialni yodda saqlashni yomonlashuvi.

Intim-shaxsiy, xufiyona, munosabat, muomala.

Introversiya – shaxs yo‘nalganligini o‘zini-o‘ziga, o‘z shaxsiy sezgilari hissiyot tashvishlari va fikriga qaratilishi.

Introver shaxs-indamas, qiziqishi sust, fikri o‘ziga qaratilgan kishi.

Introspeksiya (lot.introspectare-ichiga karayman)-insonning o‘zini-o‘zi kuzatishi, o‘rganishi.

Introspektiv metod-odamning o‘z-o‘zini kuzatishga qaratilgan psixologiya metodi.

Intuitiv tafakkur-tafakkurning tez hosil bo‘lib o‘tishi, unda aniq bosqichlarning bo‘lmasligi, ongli tushunishning minimalligi bilan tavsiflanadi.

Intiutsiya-(lot.intueri-yaxshlab, diqqat bilan karamok)-haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyati. Mas. to‘saddan yechish sifati ham tushiniladi.

Infantilizm (lot. infantilis-bolalarcha, bolalarga xos) ba’zi katta yoshdagi odamlarning gavda tuzilishi va psixik funktsiyalarida bolalik hislatlarining saqlanib qolishidan iborat psixofiziologik nuqson.

Infantilik- katta yoshdagи odamning xulq-atvori va psixikasida bolalik yoshidagi xarakter xususiyatlarini saqlanishi.

Ijobiy hislar- ob’ektiv voqeilikka bo‘lgan va o‘zaro munosabatimizdan kelib chiqadigan yoqimli kechinmalar.

Ijodiyot- inson aql zakovatining barcha ijobjiy sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, yangilik yaratuvchi faol va mustaqil faoliyat turi.

Ijodiyot psixologiyasi- psixologiyaning odam tomonidan yangi maxsul yaratish jarayonidagi psixologik qonuniyatlarni tekshiruvchi soha.

Ijodiy tafakkur -qo‘yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizga yangi tushuncha, hukm va tasavvurlar hosil qilish, yangilik yaratuvchi murakab tafakkur jarayoni.

Ijodiy xayol-original va qimmatli moddiy mahsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarni yaratuvchi xayol, u faol xayolning bir turi.

Ijrochilik – o‘ziga topshirilgan majburiyat va topshiriqlarni o‘z muddatida bajarishga harakat qilish va uni bajarish.

Ijtimoiy ong- muayyan jamiyatning falsafiy, siyosiy, axloqiy, estetik, diniy va ilmiy qarashlari majmui.

Ijtimoiy psixologiya- odamlarning turli xildagi uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlaridagi o‘zaro bирgalikdagi faoliyatida jarayonida namoyon bo‘ladigan psixik hodisalarni o‘rganuvchi soha.

Ijtimoiy ko’nikish- individning yangi muhitga faol moslashuvi .

Ijtimoiy psixologik muhit-shaxslarning bирgalikdagi faoliyatida hartomonlama rivojlanishiga yordam beruvchi yoki aksincha, to‘siq bo‘luvchi shaxslararo munosabatlar majmui.

Ilmiy ijod-tabiat va jamiyatda xano‘zgacha ma'lum bo‘lmagan qonuniyatlar, munosabatlar va hodisalarni kashf etish.

Ilmiy tafakkur-nazariy tafakkurning voqeilikdagi narsa va hodisalarning bog‘lanishi va munosabatlarini, qonuniyatlarini ochishga qaratilgan eng yuksak formasi.

Ilhom –ijodning ko‘tarinki holati bo‘lib, muammoni ijodiy yechish uchun bilish va emotsiyal muhitlar birlashib ketadi.U bir necha soatdan bir necha kungacha davom etishi mumkin.

Individuallik-muayyan shaxsning boshqa shaxslardan ajratib turuvchi, shaxsning o‘ziga xos hislatlari.

Inomova –psixologiya fanlari doktori, professor

Insayt –ayrim muammoni hal qilinish yo‘lini miyada to‘satdan paydo bo‘lishi.

Intellektual tuyg‘ular-aqliy favoliyat jarayonida yuzaga keladigan his-xayajon, Mas. qiziquvchanlik , hayratlanish, yangilikni sezish va x.k.

Intentsiya-(lot.intentio-intilish) –ong, tafakkurni qandaydir narsaga yo‘nalganligi.

Intiluvchanlik darjası –oldingi ishlarni amalga oshirishda erishgan yutuqlar yoki nuqsonga yo‘l quyilishidan keyin shakllangan va navbatdagi ish maqsadini tanlash imkoniyati darjası.

Intizomlilik-insonning ish joyi, jamiyat ,oila, jamoada belgilangan hayot qonun -qoidalariga to‘liq rioya qilishi.

Introvert shaxs-boshqalarga qo‘silmaydigan, indamas, fikri o‘ziga qaratilgan boshqalarga qiziqishi sustlashgan, o‘zini chuqur tahlil qilish qobiliyatları sust kishi.

Introspektiv psixologiya (lot.introspectio-sinchiklab qarayman, kuzataman) - ruhiy hodisalarни o‘rganishda ularning sabablarini faqat o‘z-o‘zini kuzatish metodiga asoslangan sub'ektiv idealistik psixologiya.

Intuitivism- (lat.intueri-yaxshilab karamok) reaktsion burjua falsafasidagi mistik-intuitiv bilishnigina tan olib, ilmiy-mantiqiy bilishini inkor qiluvchi burjua ta’limoti.

Ipoxonndriya (yunon.hypochondia-kovurga osti)-o‘z sog‘ligi haqida haddan ziyyod diqqat-e’tibor berish, tuzalmas kasallikkardan qo‘rqish.

Iroda – kishining o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishi uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga qaratilgan faoliyati va xulq -atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘zini –o‘zi boshqarishidir.

Iroda kuchi- shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi va uni o‘z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan irodif sifati.

Irodaviy zo‘r berish- muayan maqsadga erishish yo‘lida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun ongli ravishda jismonan va aqliy kuch sarflashdan iborat.

Irodaviy bo‘shliq- shaxsning biror faoliyat turini bajarishi uchun o‘zini majbur qila olmaslik yoki o‘z harakatlarini o‘z maqsadlariga bo‘ysundira olmaslikdan iborat salbiy xarakter hislati.

Irodaviy harakatlar- oldidan belgilangan muayyan maqsadga muvofiq ravishda jismoniy va aqlik kuch sarflash orqali amalga oshiriladigan ongli harakatlar.

Irradiatsiya (lot.irradiare-nur taratmok)-nerv jarayonining uning yuzaga kelgan qo‘zg‘alish yoki tormozlanishning bir joydan boshqa nerv qismlariga tarkalish qobiliyati.

Irratsionalizm (lot.irrationalis- aqldan tashqari)-idealistik falsafa va psixologiyadagi dunyoning asosini irratsional aqldan tashqari narsa, aql kuchi bilan bilib bo‘lmaydigan qonuniyatga zid bo‘lgan ilmiy mantiqiy bilishni inkor qiluvchi reaktsion oqim.

Irsiyat-nerv sistemasi xususiyatlarining utmish avlodlar tajribasida tarkib topib, mustahkamlanib, keyingi avlodlarga o‘tish jarayoni.

Istak- intilishning maqsadi aniq bo‘lmagan holat. Bu maqsadga erishuvning yo‘li va vositalarini tula anglab yetmaslikdan iborat irodaviy holat.

Iste'dod- shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo‘ladigan tug‘ma layoqatlari yoki boshqacha aytganda shaxsning tabiiy va muayyan ijtimoiy muhit ta'sirida erishgan noyob hislatlari .Biror sohada yuksak darajadagi qobiliyat.

Iste'dodli bolalar - o‘zini umumiyligi yoki maxsus iste'dodini namoyon qilgan bolalar. Iste'dodli bolaning aqliy rivojlanishini tashhis qilinib aniqlanadi.

Isteriya (yunon.hustera-bachadon)-XIX asrda I. bachadon kasali deb atalgan. Nevrozlar jumlasidan bo‘lgan kasallik, namoyishkorona emotsiyal reaktsiyalar (ko‘z yoshi qilish, qolish, kiykirish) tomir tortishi, o‘tkinchi falaj, garanglik, ko‘rmaslik, sezgirlikni buzilishi va sh.k.Boshqalar e’tiborini o‘ziga karatishga o‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Irodali harakatlar- shaxsning muayan psixik holatini, his-tuyg‘ularini irodalaydigan mimika kabi ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz harakatlar.

Ixtiyoriy idrok-oldin mo‘ljallangan maqsadga qarab muayyan bir ob'ektni idrok qilish.

Ixtiyorsiz xayol- oldindan biror maqsad kuymagan holda idrok qilinmagan hamda turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazini yaratishdan iborat xayol turi.

Ixtiyorsiz diqqat – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan ob'ektga yo'naltirilganishi va unda tuplanishidan iborat diqqat turi.

Ixtiyorsiz faollik- shaxsdagi psixik jarayonlar, holatlarning yoki ma'lum bir harakatlarning oldindan quyilgan aniq maqsadsiz faqat tashqi sabablarga ko'ra ongsiz kuch sarflash orqali sodir bo'lishi.

Ixtisos-(lot.gualificatio-qanday, kanaka, sifatli) shaxsning muayyan kasbga nisbatan tayyorgarlik saviyasi, shu kasbga doir zaruriy bilim, ko'nikma va malakalari majmui.

Ixtisos sinovlari- o'quvchilar ishlab chiqarish ta'limining to'liq nazariy va amaliy ko'rsini tamomlagandan sung, olgan bilim va malakalarini tekshirish bo'yicha o'tkaziladigan tadbir.

Ixtiyoriy esda olib qolish-maxsus mnemik harakatlar, ya'ni asosiy maqsad esda olib qolishdan iborat bo'lgan harakatlar mahsuli.

Ixtiyorsiz idrok-narsa va hodisalarni oldindan belgilangan muayyan maqsadsiz idrok qilish.

Ixtiyorsiz xayol-oldindan belgili maqsad kuymagan holda idrok qilmagan hamda turmush tarzi tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazini yaratishdan iborat xayol turi.

Ixtiyorsiz xotira- biror narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'limgan holda esda olib qolish va qayta esga tushirish.

Ixtiyorsiz harakat –ong nazoratisiz amalga oshiriladigan impulsiv yoki reflektorli harakatlar.

Ichki diqqat- ongimizning o'z sub'ektiv taassurotlarimiz, his-tuyg'ularimiz va intilishlarimizga qaratilishdan iborat diqqat turi.

Ichki tormozlanish-tormozlanishning shartli reflektor reaksiyalarida namoyon bo'ladigan bir turi.

Ichki retseptorlar-ichki organlardagi sezuvchi nervlarning ta'sirotni qabul qilib oluvchi chekka uchlari.

Ichki retseptor- ichki organlardagi sezuvchi nervlarning ta'sirotni qabul qilib oluvchi chekka uchlari.

Ichki qo‘zg‘ovchi- ichki retseptorlarga ta'sir etib, bizda organik sezgilar hosil qiluvchi ichki organlar faoliyatidagi fiziologik va kimyoviy o‘zgarishlar.

Ichki nutq- kishining o‘zini-o‘ziga karatgan tovushsiz nutqi, fikriy faolligi U bilishning asosiy vositasidir.

Ishonchilik-ob'ektiv voqeilikdagi narsa va hodisalarni fikran to‘g‘ri, shak-shubxasiz aks ettirishdan iborat mantiqiy kategoriya.

Ishontirish-shaxsga muayyan ta'sir o‘tkazish; buning natijasida kishi irodasi va ongidan qat'iy nazar, unda muayyan holat, hissiyot, munosabat vujudga keltiriladi.

Ishonuvchanlik- shaxsning boshqa kishilarning ta'siri shak-shubxasiz ishonishdan iborat xarakter hislati.

Ishonch- jamiyat va inson tafakkuri hodisalari haqidagi hukmlarning chin yoki yolg‘onligini isbotlash uchun qabul qilingan tasavvur hamda tushunchalardan iborat ong mazmuni hodisalarni shak-shubxasiz tan olinishi.

Ichikoralik- kishining baxilligi va o‘zganing omadini ko‘ra olmaslik, xasadguy, g‘arazgo‘ylik kabi kabi hislatlarga ega bo‘lgan shaxs.

Ishtiyoq –faoliyatni bajarishga katta kuch g‘ayrat bilan kirishish yoki bajarish.

Ishchanlik –ishni belgilangan vaqt ichida ma'lum darajada samarali va maqsadga muvofiq qilib bajarish uchun insonning potentsial imkoniyati.

Iktisodiy psixologiya-psixologiyaning odamlarni ishlab chiqarish munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan psixologik jarayonlarini o‘rganuvchi sohasi.

J

Jamoa- shaxslararo munosabatlarda birgalikdagi faoliyatning ijtimoiy qiymatlari va shaxsiy jihatdan ahamiyatliligi orqali o‘z ifodasini topadigan guruh.

Jamoatchilik fikri-ijtimoiy turmush, jamoa faoliyati, alohida bir insonning faoliyati to‘g‘risida bildirilgan bir xil xulosa.

Jamoaning negizi- umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Jasorat-shaxsning matonatligi, jasurligi, dalilligi kabi xususiyatlarining o'ziga xos ravishda biriktuvidan tashkil topgan murakkab irodaviy xarakter hislati.

Jasurlik-shaxsiy hayot uchun xavf-xatarli bo'lgan harakatlarni qat'iylik bilan va oqilona bajarishda ifodalanadigan xarakter hislati.

Jems-Lange nazariyasi- Unga ko'ra hissiyotlar faqat pereferik nerv sitemasi orqali sodir bo'ladigan harakatlar pereferik reaksiyalar tomonidan boshqariladi, ularning bu nazariyalari xatodir, chunki hissiyotlar markaziy nerv sistemasining eng yuqorigi bo'limlari asosiy rol uynaydi.

Jeneva genetik psixologiya maktabi -(yunon genesis-kelib chiqish)-bolaning psixik rivojlanishini o'rganib boruvchi psixologik soha. J.maktabining asoschisi J.Pianje hisoblanadi.

Jest-ruhiy holatni ifodalovchi ijtimoiy ko'nikib qolingga harakat.

Jestli nutq-kishilarning so'zsiz, jestlar yordamida leksika va grammatika qonuniyatlariga asoslangan o'zaro muloqot.

Jinsiy mayl-ikki jinsning bir-biriga mayl quyishi, qo'shilishi, ko'payishi bilan bog'liqdir.

Jinsiy psixologiya-Bu fan hozirgi burjua psixologiyasining bir tarmog'i bo'lib, shaxsning shahvoniy hislari va mayllarini o'rganish bilan bog'liqdir.

Jodugarlik- shaxsiy manfaat uchun sodda kishilarni avrash ularning taqdirini «fol ochish», sehr afsunlar o'qishdan iborat qalloblik.

Jon-falsafiy tushuncha bo'lib, u jonli yaratilishining asoschisidir.

K

Kayfiyat-inson his-tuyg'usining yaxlit shakli, kechinmalarining umumiy holati.Kayfiyat doirasi har xil, u insonning umumiy kechinmalaridan to zerikish, qo'rquv, xafalik yoki kuvnoklik, umid va qiziqish kabilargacha bo'lgan barcha shakllarni o'z ichiga oladi.

Kamtarlik-shaxsning atrofdagi kishilar bilan oddiy muomalada, o'ziga tankidiy jihatdan yondashishi, , o'zgalarga hurmat ila bo'lishi, maktanmaslik kabi sifatlari mavjud bo'lgan xarakter hislatli shaxs.

Kasb (lot.professio-mashg'ulot)-shaxsning jamiyat a'zosi sifatida yashash manbai bo'lib xizmat qiladigan doimiy mashg'ulot yoki faoliyat turi.

Kasb psixologiyasi-mehnat psixologiyasining kasblarning psixologik komponentlari yoki muayyan kasbga ishlovchilarga nisbatan quyiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy analiz qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Kasb kasalligi-muayyan sohadagi tipik yoki shu kasbning ko‘pchilik vaqillariga xos bo‘lgan kasallik.

Kasb-xunarga yo‘nalish berish-yoshlarni ishga joylashtirishda ularning xoxishlari, qiziqishlari, shakllangan qobiliyati, layoqatiga qarab psixologik - pedagogik va tibbiy tadbirlar o‘tkazish.

Kasb-xunar konssultatsiyasi-jamiyat ehtiyoji va yoshlarning qiziqishi iste'dodlariga qarab turli kasblar haqida ilmiy tashkiliy qilingan ma'lumotlar berish.

Kar'erizm (fr.carriere-chopmok, yugurmok) – mansabparastlik; turmushda, jamoat manfaatlariga qarama-qarshi o‘laroq, o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab, yutuq, mavqe, mansabga intilishidan iborat salbiy xarakter hislati.

Keskinlik-insoniylikka karama-qarshi bo‘lgan xususiyatdir.

Konfabulyatsiya (lot.confabulo-valdirayman)-xotira buzilishi oqibatida ro‘y beradigan yolg‘on ,noto‘g‘ri eslashlar.

Katalepsiya (yunon.katalepsis-tulgok,tutkanok,dard)-ayrim ruhiy kasalliklar. Mas: katatoniya, isteniya yoki gipnoz vaqtida normal harakatning buzilishi,odamning bir vaziyatda qotib qolishi,sezgirlikning pasayishi,tushga o‘xshash holat.

Katatoniya(yunon. kato-uzunasiga, tonos-taranglashish)-kishi psixik holatining buzilishi. Bunda ko‘pincha harakat faoliyati o‘zgaradi, karaxtlik yoki faollik bilan kechadi, musaullar tortishadi.

Katarsis (yunon. katharsis-tozalash)- jarohatlovchi his-xayajondan kutulish maqsadida hikoya qilish, xotirlash.

Kataleptik uyqu-(yunon. katalepsis-tutkanok, tutib qolish) miya po‘stlog‘ining tormozlanishi natijasida gavdaning yoki ayrim a'zolarininig ixtiyoriy harakatlar qilib qotib qolishi.

Kauzal atributsiya-boshqa kishining axloqining motivi va sababini shaxslaaro idrok qilinishi sub'ekt tomonidan tasvirlanishi.

Kviyetizm(lot.guietus-tinch,yuvosh)atrofdagi hayotga, unda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga nisbatan befarq, munosabatda irodalanadigan salbiy ruhiy holat.

Keksalik psixozlari-50-60 yoshda paydo bo‘ladigan psixik kasalliklar. Asosiy shakllari-depressiya, alaxlash.

Kibernetika(lot.kiuberno-boshqaraman)-texnik ko‘rilmalardagi,tirik organizmlardagi va kishilik jamiyatidagi asosiy boshqarish jarayonlari o‘rganuvchi fan.

Kimograf (yunon.kimo-to‘lqin, xayajonlanish grapho-yozaman) psixofiziologik ilmiy tekshirishlarda organizmdagi turli turli fiziologik jarayonlarni grafik usulda yozib olish uchun ishlatiladigan asbob, yozuvini kimogramma deb ataladi.

Kinetik nutq (yunon. kinema- harakat)-urli irodali harakatlar, imo-ishoralar orqali fikr almashuv jarayoni.

Kinestezik sezgi (yunon.kineo-harakatga keltirmok)- proprioretseptorlar qo‘zg‘alishi natijasida o‘z tana a’zolari harakati va holatini sezish.

Kinoya- piching, rad etmoq yoki rozilik, ma’qullash, yolg‘on ustidan qolishning bir ko‘rnishi.

Kichik guruh- a’zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo‘luvchi kishilar guruhi.

Kleptomaniya (lot.klepto-o‘g‘irlayman, mania- aqlsizlik)- turli ruhiy kasalliklar jarayonida ro‘y beradigan, o‘g‘irlik qilishga nisbatan kuchli ehtiros bilan irodalanadigan psixopotologik nuqson.

Kolliziya (lot.collisio-to‘qnashuv)- inson psixikasi, ongdagi qarama-qarshi fikrlarning, qiziqishlarning to‘qnashuvi.

Koma (yunon. koma-uyquchilik, harakatsizlik, behushlik)- markaziy nerv tizimining haddan tashqari holdan toyishi natijasida ro‘y beradigan ongsizlik holati.

Kompyuter (lot.computare-sanamok, hisoblab chiqarmok)-E.X.M. ning ilmiy-ommabop nomi.

Kishi shaxsining yo‘naltirilganganligi- shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog‘liq bo‘lmagan barqaror motivlar majmui .

Kognitiv dissonans-bir ob’ektda mavjud bo‘lgan karama-qarshi fikrlar, tushunchalar natijasida hosil bo‘ladigan qarama-qarshiliklarning yoqimsiz holati.

Kommunikatsiya (lot.communico-aloqa, fikr almashinuv)- axborotni til og‘zaki nutq va boshqa vositalar yordamida ifodalash qobiliyati.

Konvergentsiya-(lot.convergere- yakinlashmok, to‘g‘rilamok)- narsa va hodisalarni idrok qilishda ko‘z sokkalarining bir-biriga qarab mos harakatlanishi natijasida ko‘rvu uklarning idrok qilinayotgan narsa ustida kesishuvi.

Konsillium-o‘quvchiga pedagogik-psixologik, tibbiy tashxis qo‘yish maqsadida o‘tkaziladigan ma'lum mutaxassislar guruhining maslaxat yig‘ilishi.

Kontrast-oldingi yoki Hozirgi paytdagi ko‘zg‘atuvchi ta’siri natijasida sezgi sifati va intensivligining o‘zgarishi.

Kommunikatsion qobiliyatlar- kishining boshqa odamlar bilan bo‘ladigan muloqotini yaxshilaydigan va birgalikda faoliyatda psixologik kovushuvchanlikni ta’minlaydigan qobiliyat.

Konflikt-(lot.sonflistus-tuknashuv)-karama-qarshi qarashlar, maqsadlar, qiziqishlar, fikrlar, g‘oyalar to‘qnashuvi.

Kontent-tahlil (ing.centents-mazmun, yunon.anlysis-bo‘laqlarga ajratish) ma'lum mazmunlarni ro‘yxatga olish yo‘li bilan matnlarning o‘ziga xos xarakterli tomonlarini aniqlash.

Komfort (ing.confort-qulaylik)- ishchi o‘rinlarining qulay shart-sharoitlari.

Konfabo‘lyatsiya(lot.confabulatio-suhbat, gaplashish)-yorkin obrazli xarakterga ega bo‘lgan yolg‘on fantastik fikrni bildirish.

Konformlik (lot.conformis-mos keluvchi, o‘xshash) individning guruhga tashqi moslashishi, guruhning har qanday ta’siriga ichki noroziligi bo‘lsa ham ularga bo‘ysunib, ongli moslashuvi.

Kontseptsiya-(lot.comseptio-idrok etmoq)-faoliyat maqsadlari o‘z ichiga saqlanib qolgan, faqat o‘zi uchungina xizmat qiladigan moslanishdan qo‘zg‘alish holatiga o‘tish qobiliyati.

Korporatsiya-faqat o‘zi uchun ishlovchi, faoliyatning maqsadi uning ichida yopiq bo‘lgan guruh.

Korrelyatsiya- tajriba natijalari, haqiqiy hodisalar aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi o‘lchovi, me'yori.

Korrektzion ta’sir etish- bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarni yo‘qotish yoki qisman kamaytirishga yo‘naltirilgangan pedagogik – psixologik tadbirlar tizimi.

Korrelyatsion tahlil (lot. correlativus-takkoslash)- yekshiralayotgan hodisalar yoki omillarning shakllari, belgilarining aloqadorlik darajasini (bir-biriga bog‘liqligini) baholashning statistik usuli.

Kosmik psixologiya (yunon.kosmos-dunyoviy, koinot)- vaznsizlik va bo‘shliqda aniq mo‘jal ala bilmaslik sharoitida, inson tanasiga ortiqcha ta’sirotlar bo‘lganda ro‘y beradigan nerv-psixik zo‘riqish holatlarini tadqiq qiluvchi soha.

Kosmopolitizm(yunon. kosmopolites-«dunyo fuqarosi»)-«odam butun dunyo fuqarosidir» degan soxta shior bilan shaxsning vatanparvarlik hislatlari bilan milliy an'analar, madaniyatga xos urf-odatlaridan voz kechishga da'vat etuvchi burjuaziya idealogiyasi.

Kreativlik testlari (lot.creatio-yaratish, ijod qilish)- shaxs ijodiy qobiliyatlarini o‘rganuvchi va baholovchi metodikalar majmui.

Kretinizm (fr.cretin-befahm) qalqonsimon bez va boshqa ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi natijasida tug‘ma esi pastlik.

Kriminal psixologiya –jinoyatchi xulq atvori shaxsning shakllanishiga doir psixologik muammolar, jinoyat motivlari va sh-klarni o‘rganuvchi soha.

Kuzatuvchanlik –individning narsa va hodisalardagi muhim, shuningdek, uncha ko‘zga tashlanmaydigan belgilarini ilg‘ay olish ko‘nikmasi.

Kuzatish- shaxsni qiziqtirgan narsalar va tevarak atrofidagi hodisalarni bilish uchun maqsadli va rejali tarzda idrok etish .

Kuzatish metodi-faoliyat mahsulini tahlil etish, erkin tavsifnomalarni umumlashtirish usuli.

Kuchsiz tip- nerv tizimining arzimagan yoki ozgina qo‘zg‘ovchilar ta’siriga ham bardosh bera olmasdan himoyaviy tormozlanishga o‘tishdan iborat sifat ko‘rsatkichi.

Ko‘nikma-odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorgarligida ko‘rinadigan qobiliyati.

Ko‘rgazmali harakat tafakkuri- tafakkur turlaridan biri, narsa va hodisalarni bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda namoyon bo‘ladi.

Ko‘ruv diqqati- narsa va hodisalarni ko‘ruv a'zosi orqali idrok qilish, esga tushurish munosabati bilan namoyon bo‘ladigan diqqat turi.

Ko‘ruv idroki- ko‘ruv analizatori (ko‘z) orqali amalga oshiriladigan idrok turi.

Ko‘ruv obrazi- ko‘ruv analizatorlari yordamida hosil bo‘lgan sezgi, idrok, tasavvur obrazlari yoki ong mahsuli.

Ko‘ruv sezgisi –ko‘ruv analizatori bevosita ta'sir etib turgan ranglar va yorug‘likni aks ettirishdan iborat sezgi turi.

Ko‘z gavhari- no‘rni sindirib, uning ko‘z tur pardasiga tuplanishiga, demak ko‘rayotgan narsalarning tasviri hosil bo‘lishga yordam beradi.

L

Laborant (lot.laborans-ishlayotgan)- psixologiya laboratoriyasidagi ilmiy yoki texnik xodim, zarur labaratoriyyada asbob-uskunalar, o‘quv qurollari tayyorlanadi.

Laboratoriya (lot.laborare-ishlamok)-ilmiy muassasa qaramog‘ida bo‘lgan ilmiy izlanish , tajribalarni olib boruvchi bo‘lim.

Laboratoriya tajribasi (lot.laborare-ishlamok)-psixologiya metodlaridan biri, tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarga qat'iy nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

Laboratoriya mashg‘ulotlari- psixologiyaga doir bo‘lgan qonuniyatlar, ayniyatlarni maktab o‘quvchilari yoki talabalarga ko‘rsatish uchun o‘tkaziladigan amaliy ishlar.

Labillik (lot.labilis-beqaror, o‘zgaruvchan)-nerv hujayraralarining tezlik bilan qo‘zg‘alish holatidantormozlanishga va tormozlanishda qo‘zg‘alish holatiga o‘tish xususiyati.

Lakonizm (yunon.lakonismos-qisqalik)- nutq jarayonida fikrni qisqa hamda aniq irodalay bilishdan iborat aql sifati yoki xarakter hislati.

Layoqat –individning ma'lum faoliyatning bajarishga undovchi saylanma yo‘nalganligi.Nerv tizimining ba'zi irsiy determinlashgan anatom-fiziologik xususiyati.

Lampali texistoskop-(yunon.tachus-tez, skophio-ko‘raman, idrok qilaman) laboratoriya sharoitida diqqatning taqsimlanishi xususiyatini tekshirishda qo‘llaniladigan maxsus asbob.

Latent davr –yashirin davr, biror ko‘zg‘atuvchining organizm, organ, to‘qima yoki hujayraraga ta’sir etgan ondan to javob reaktsiyasigacha bo‘lgan davr.

Latentlik- tashqi tomondan o‘zini namoyon qilmaslik.

Letargiya-(yunon.litargio-unutish)-odamning uxlayotgandek, harakatsiz holati, bunda ta’sirotlarga reaktsiya ko‘rsatmaydi, hayot belgilari nihoyatda susayadi, ammo sinchiklab tekshirilganda ular borligi aniqlanadi. Letargiya bir necha soatdan bir necha haftagacha davom etishi mumkin.

Libido-(lot.libido-intilish) seksologiyada jinoiy mayl. Psixoanalizning asosiy tushunchalaridan biri. G‘ayrishuuriy seksual maylni anglatadi.

Limbik tizim –bosh miyaning ayrim emotsiyal jarayonlar bilan bog‘liq qismlarning umumiyligi.

Limfa (lot.lympha-namlik)- kimyoviy tarkibiga ko‘ra qon plazmasiga yaqin, lekin oqsillari kam suyuqlik. Limfatik tizim bo‘yicha aylanadi va to‘qimalararo makонни to‘ldirib turadi, to‘qimalar uchun oziq muhitni hisoblanadi.

Liri-Temote testi-Shaxslararo munosabatni aniqlovchi, 128 savolli test.

Lokomotsiya (lot.lokus-joy)- inson va hayvon organizmining erkin faoliyatini ta‘minlovchi harakatlar yig‘indisi.

Lokus nazorati (lot.lokus-joy)- odamning o‘z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko‘rish.

Logopatiya-(yunon.logos-so‘z, pathos-jabrlanish) eshitish qobiliyati normal saqlangani holda nutqning buzilishi.

Logopediya (yunon.logos-so‘z, paideia-tarbiya)- pedagogikaning talaffuzdagi nutq nuqsonlarini o‘rganuvchi, uni oldini olish va bartaraf qilish bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

Longityud tadqiqot- (ing.longitude-uzoq muddat) insonning yosh va individual o‘zgarishlar qo‘lamini o‘rganish maqsadida yashash davri fazalari o‘zgarmas bo‘lgan guruhni uzoq va uzlusiz tekshirish usuli.

Lunatizm (lot.luna-oy, lunatikus-aqlsiz, telba, jinni)-tushida yurib chiqadigan, alahsiradigan kishi.

Lyusher testi- ruhiy holatni aniqlovchi rangli test.

M

Mavqe-insonlarning o‘zaro munosabatlarida egallagan o‘rni, huquqi va majburiyatlarni aniqlovchi jarayon.

Maza sezgiları- suvda yoki sulakda erigan moddalarning ta'mini aks ettilishdan iborat sezgi turi.Tilning yuza qismi va yumshoq tanglay m.s. ning organidir.

Mayl-tirik organizmning biror ehtiyojini qondirishga intilishi. Sodda organizmlarda instinktiv reaktsiyalarda yuqori tuzilmalarda esa orttirilgan tajriba orqali irodalanadi.Inson ongidan mustaqil ravishda vujudga keladi. Shaxsning istak va talablariga bo'ysunib, unga mammuniyat baxsh etadi.

Maktab va hayot- Respublika xalq ta'limi vazirligining psixologiyaga oid ilmiy-metodik jurnali. (2001 yidan nashr etilmokda).

Maktabgacha yosh psixologiyasi- maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti qonunlari va ularga ta'lim-tarbiya berishning psixologik asoslarini o'r ganuvchi maxsus soha.

Maktab va bog'cha psixologi-konkret muayyan jamoadagi bolalar shaxsiy fazilatlari ularni shakllanganlik darajasini o'r ganish va yana qaysi fazilatlarni shakllantirish, boladagi qaysi o'zgarishlar samarali, qaysilari noo'rin, ularni qay yo'sinda yuzaga kelganligini o'r ganish va tuzatishdan iborat ishlarni amalga oshiruvchi shaxs.

Malaka- kishida maqsadga muvofiq tarzdagi sa'i-harakatlariin ijro etishi va boshqarishning aynan shu tarzda qisman avtomatlashuvi.

Malakalar interferentsiyasi (lot. inter-orasida, ferens-tarkatuvchi)-mustahkamlanib qolgan malakalarni yangi malakalar hosil bo'lish jarayoniga to'sqinlik qiluvchi ta'siri natijasida yangi malakalarni susayib qolishi.

Malakani kuchishi-ilgari mustahkam egallab olingan malakalarni yangi malakalarni hosil qilishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi.

Malakalar regressi-(lat.regressus-kaytish, orqaga harakatlanish) ma'lum bir faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning biror sababga ko'ra, ko'p vaqt amalda ishlatilmaganligi natijasida asta-sekin so'nishidan iborat qonun.

Malakalarning egri chizig'i-malakalarning hosil bo'lish jarayoni grafik usulda tasvirlaydigan egri chiziqlar.

Malakalarning usishi- muayyan faoliyat sohasida doir malakalarning kundalik amaliyotida ko'p qo'llanishi natijasida tobora o'sib, mukammalashib borishidan iborat qonuniyat.

Malakalarning tormozlanishi- muayyan faoliyat sohasiga doir avval hosil qilingan malakalarning keyin yangi malakalar hosil qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishidan iborat qonuniyat.

Ma'lumot- tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish jarayoni hamda natijasi.

Ma'lumotlilik-muayyan bilim va malakalarni o'zlashtirganlik, egallanganlikdan iborat madaniy sifat.

Markazga intiluvchi nervlar-retseptorlarda hosil bo‘lgan impulsni tegishli nerv markazlariga olib boradigan nervlar.

Markaziy nerv tizimi- hayvon va odam nerv tizimlarining organizmini tashqi muhit bilan bog‘laydigan va organizmdagi barcha jarayonlarni boshqarib turadigan asosiy qismi.

Markazdan kochuvchi nervlar-tegishli nerv markazlaridan beriladigan qo‘zg‘alishni pereferiya (chet) ga olib boruvchi nervlar.

Manera (fr.maniera-usul, harakat tartibi,odat)- shaxsning tashqi xulq formalari –o‘zini tuta bilish hamda hatti-harakatlar yig‘indisi.

Maniakallik-tezlashgan, ammo juda soddalashgan tafakkur va ko‘tarinki kayfiyatning favqo‘lodega ko‘zgaluvchanligining patologik holati.

Manipulyatsiya (lot.manipulus-sikim, xovuch)-bir yoki har ikkala qo‘lning ma’lum bir vazifasini bajarish maqsadidagi harakati.

Maniya (yunon.mania-aqlsizlik, ehtiros, mayl)- ko‘tarinki kayfiyat harakat va nutq sohasidagi o‘ta ko‘zg‘aluvchanlik bilan sifatlanadigan psixopotologik holat.

Mantiq-(lot.logos- fikr, aql,so‘z)-mantiq tafakkur qonuniyatlarini, fikrlash formalari va qonunlarini, tafakkurni aks etganda, narsalar va hodisalarining harakati va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi dialektik ta’limot.

Mantiqiy xotira-xotira turlaridan materialni ma’no tomonidan o‘zaro bog‘langan holda tushunib, esga qoldirishga aoslanadi.

Marosim- ma’lum bir xalqning to‘y-tamosha, ma'raka kabi yig‘inlardagi ijtimoiy urf-odatlari, rasm-rusumlarining umumiy nomi.

Marazm- (yunon.marasmus-bo‘shashganlik) karilik, yoki uzoq kasallik natijasida organizmning haddan tashqari holdan toyishi, kuchsizlanishi, shaxsning ma’naviy ojizligi.

Materiya (lot. materia-materiya)- dunyoda mavjud bo‘lgan hamma narsalar moddiyidir. Atomlar va uning tarkibiy qismlari kimyoviy organizm, hujayaralar, usimliklar, hayvonlar, insonlar bularning hammasi materiyaning turli xil yashash formalaridir.

Matonatlilik-shaxsning muayyan maqsadni amalga oshirish yo‘lida uchraydigan har qanday ob'ektiv hamda sub'ektiv qiyinchiliklarga bardosh berib, ularni yengib chiqishdan iborat irodaviy xarakter hislati.

Markazga intiluvchi nervlar-retseptorlarda hosil bo‘lgan impulsni tegishli nerv markazlariga olib boradigan nervlar.

Maxizm-avtriya fizigi va filosofi Ernest Maxning (1838-1916) nomi bilan bog‘liq bo‘lgan XIX asrfalsafasi va nazariy fizikasidagi reaktsion idealistik oqim.

Maxsus qobiliyat-ma’lum biror faoliyatni muvaffakiyatli bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxsning psixologik xususiyati. Maxsus qobiliyatlar musiqa, adabiy, artistlik,badiiy, matematik va xk.bo‘lishi mumkin

Maxsus psixologiya- psixologiyaning aqli zaif, kar, qulog'i vazmin, ko'r, yaxshi ko'rmaydigan, ruhiy, kamchiligi bor bolalarning psixikasini o'rganadigan ko'p tarmoqli bo'lim.

Mashq- muayyan harakatlar yoki faoliyat turlarini o'zlashtirib olish maqsadida ularni anglangan tarzda hamda ongli ravishda nazorat qilishga va to'zatishga asoslangan holda ko'p martalab takroran bajariladigan faoliyatlar.

Mashq qilish-ma'lum malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga takomillashtirishga qaratilgan jarayon.

Ma'lumotlarning chizma tasviri-bir tartibga kiritilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni hamda natijasi.

Ma'naviyat-shaxsning ideal bilimga intilish va ijtimoiylik yo'lida faoliyat ko'rsatishi.

Ma'naviy burch-ikki axloqiy mayl, intilish bilan bajariladigan, shaxsning ehtiyojiga aylangan harakatlarni amalga oshirishdan iborat olivjanob hislat.

Ma'naviy ehtiyoj-ilm, madaniyat, san'atga, shuningdek, zeb-ziynat ashylariga bo'lgan muhtojlikni sezish.

Maqsad- faoliyatning oldindan fikran uylangan natijasi. Bevosita motiv sifatida maqsad inson faoliyatini muayyan yo'lga boshlaydi va uni boshqaradi.

Maqsadga intiluvchanlik- odam o'z faoliyatini ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga buysundira olish ko'nikmasi.

Maqsad gradiyenti-ko'zlangan maqsadga erishishga yakinlashgan sari faoliyat motivi kuchining o'zgarib borishi.

Maxorat-muayyan faoliyat sohasida mustahkam bilimlarga yuqori darajadagi malakaga ega shaxsiy sifat.

Meditatsiya (lot.meditatio-fikrlash)- inson psixikasining teran holatga keltirish va bir nuqtaga jalg etishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyat .Tanani bo'shashtirish, hissiyotni sundirish va tashqi ta'sirot bilan aloqani o'zish.

Medium (lot.medium- o'rta)- spiritlarning xurofiy tasavvuriga ko'ra yorug' dunyo kishilari bilan «ruhiy olami», «arvoxlar», o'rtasidagi vositachilik qiluvchi ilohiy «shaxs».

Melanholiya (yunon.melas-kora, chole-ut,safro)-temperament turlaridan psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchilik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

Melonholik- Gippokrat ta'limotiga ko'ra, temperamentning bir turi. Yuksak darajadagi ta'sirchanlik va hissiyotning zoxiran nisbatan sust irodalanganligi.

«Men» ning siymosi – individning o'zi haqidagi nisbatan barqaror ko'proq yoki ozrok darajada anglanilmagan, individning boshqalar bilan o'zaro munosabatida asos bo'ladigan betakror deb his qilinadigan tasavvurlar sistemasi.

Mentalitet (ing. mentality-o'ziga xoslik) -psixik xususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning o'ziga xos tuzilishi, yig'indisi, shaklini anglatuvchi umumlashgan tushuncha.

Metod (yunon.methodos-tadqiqot,tekshirish)-bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Mexanik xotira- (yunon.mechane-ko'rol,mashina)- muayyan material ma'nosini, mazmunini, ichki mohiyatini, ichki mantiqiy bog'lanishlariga tushunmagan holda takrorlashga asoslangan xotira turi.

Mehnat – insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojini kondirish uchun ijtimoiy foydali mahsulot yaratishga qaratilgan faoliyati.

Mehnat madaniyati-mehnatni to'g'ri tashkil qilishga doir bilimlar, malakalar va odatlar tizimidan iborat individual hislat.

Mehnatni ilmiy tashkil psixologiyasi-psixologiya sohasi, mehnat jarayonida shaxsning qulay psixik xususiyatlariga ko'ra qulay sharoitlarni yaratish qonuniyatlarini o'rganadi.

Mehnat psixologiyasi – psixologiyaning sohasi. Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganadi; mehnatni ilmiy tashkil etish va kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik va mehnatda toliqish, baxtsiz hodisalarga qarshi ko'rashish kabi masalalarni hal etadi.

Mehnatsevarlik – insonning mehnat faoliyati jarayoniga ijobiy shaxsiy munosabatidan iborat bo'lgan xarakter xususiyati.

Mislin(yunon myclos-ilik)-nerv tolalarining yumshok qobig'i tarkibiga kiruvchi yogsimon moddalar aralashmasi.

Mizantropiya (yunon misantropia-odamovilik)-odamni yoktirmaslikdan iborat bo'lgan salbiy xarakter hislati.

Millatchilik-(fr.nationalisme)- bir millatning ikkinchisiga qarshi «gij-gijlash», ular o'rtasida milliy nizo solishga qaratilgan reaktsion siyosat.

Milliy iftixor- o'z millatning xududi, tabiiy moddiy va ma'naviy boyliklari, shonli utmishi bilan faxrlanish his-tuyg'ularidan iborat ijobiy hislat.

Milliy xarakter (yunon.charakter-xususiyat, belgi) –biror bir millatga xos xususiyatlar.

Milliy stereotip (yunon.stereos-qattiq, typos-iz, shakl) –ma'lum millatning obraqi bo'lib, u o'zida o'sha millatga xos shaxs xususiyatlari, madaniyati, xulq-atvorini namoyon qiladi.

Milliy test normalari (ing.test-sinov,norma-o'lchov)-standartlashtirilgan normalar, ular testlarning mezonlarini hisobga oladigan va milliy tus beradigan normalardir.

Milliy his-tuyg'ular-milliy an'ana, urf-odat, qadriyatga asoslangan hislar tizimi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash-o‘z milliyligini anglash, milliy qadriyat va urfatlarga hurmatda bo‘lish.

Mimika - (yunon.mimikos-taxlid qiluvchi) yuz musqo‘llarining irodali harakati, kishi hissiyotining namoyon bo‘lish shakllaridan biri.

Mimika-imo-ishora nutqi- kishilarning yuz va qo‘l harakatlari orqali fikr olishuvidan iborat bo‘lgan nutq formasi.

Mistika-(yunon.mistic-yashirin marosim, maxfiylik) tabiatdan tashqari kuchlarga, iloxiyatga, g‘ayri hissiy narsalarga ishonish.

Mimikriya – kiyofaning o‘zgarishi, hayvonlar yoki usimliklarning ular yashayotgan muhitdan farq qilmaydigan tusga yoki shaklga kirishi.

Miya – odam va hayvonlar nerv sistemasining markaziy bo‘limi. Nerv to‘qimalari qo‘l rang va ok moddadon iborat. Bosh miya va orqa miyaga bo‘linadi. Odatda miya –oliy nerv faoliyatining organi.

Miya po‘stlog‘i- odam bosh miyasi va orqa miyasini o‘rab turadigan membrana. U biriktiruvchi to‘qimalardan iborat

Miya bioritmi-miya elektr faolligining spontan yoki fondli ko‘rinishi.

Modallik-sezgi va idrokni ma'lum sezgi a'zosiga tegishlilagini ko‘rsatuvchi sezgi va idrokning sifat tavsifi.

Model (fr.modele-namuna)- ilmiy tadqiqotlarni to‘zish, ishga tadbik etish, idrok etishga qaratilgan tuzilma.

Modellashtirish-bilim obe'ktlarni modellar asosida yaratishva tahlil qilish.

Mnema-(yunon.mnemo-xotira)- xotiraning organik moddiy asosini belgilash uchun ishlatiladigan termin.

Mnemonika-(yunon.mnemonikon-eslab qolish qobiliyati.) keraqli ma'lumotni yodlash va eslashga kumaqlashuvchi maxsus tuzilmalar usullar majmui. U xotirani kuchaytirmaydi, faqat eslashga yordam beradi.

Mexanik xotira-material ma'nosini tushunmasdan takrorlashga asoslangan xotira turi.

Mojaro-ijtimoiy va shaxsiy hayotda u yoki bu masalani hal qilishda odamlar orasida vujudga keladigan karama-qarashilik.

Moyillik-shaxsning muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanishga doimiy intilishidan iborat induvidual xususiyat.

Monizm (yunon.monos-bir) dualizmga qarama-qarshi o‘larоq, dunyodagi barcha hodisalarning asosini bitta narsa, yo materiya, yo ruh tashkil qiladi deb ta'lim beruvchi falsafiy ta'limot.

Monogamiya (yunon.monos-bir,gamos-nikoh) –bir erkakning bir ayol bilan qat’iy birgalikdagi hayotidan iborat bo‘lgan tarixan tarkib topgan oila formasi.

Monokulyar ko‘rish-(yunon.monos-bir,lot.oculis-ko‘zga oid)-bitta ko‘z yordamida qarash, ko‘rish.

Monolog-bir kishining bir yoki bir necha kishiga qaratilgan nutqi.

Monoteizm (yunon.monos-bir,theos-xudo)-poleteizmga karama-qarshi ularok, faqat bitta xudoni tan oluvchi din formasi.

Monofazali uyqu- sutkastga bir marotaba uqlash.M.u. aksariyat kishilarning odatiga aylanib qolgan.

Motiv-(lot. movete-harakatga keltirmok) inson faoliyatining muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj. Keng ma'noda u ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot va boshqalar.

Motivatsiya-yuksak tuzilgan hayvonlar va odam miyasi strukturasining faol holati. Ular irsiy yo‘l bilan shakllangan yoki hayotda orttirilgan va individual (mas.ochlik,tashnalik) yoki guruhiy (nasl g‘amini yeyish va boshqalar) ehtiyojlarni kondirishga qaratilgan faol harakatlarni bajarishga undaydi.

Motor reaktsiyasi (lot.motor-harakatlantiruvchi)- mushaklarning organizmga ta'sir etgan muayan qo‘zg‘ovchiga nisbatan qaytargan reflektor javobi.

Motivlar kurashi (lot.motivus-harakatchan)- o‘ziga ma'qul bo‘lgan qaror qabul qilish uchun shaxsning irodaviy harakatlar bosqichi.

Muammoli vaziyat-bilish ehtiyojini kondirishda tafakkur qilish sharti bo‘lgan psixologik vaziyat.

Muammoli ta‘lim-o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilganva o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan o‘qitish usuli.

Muloqot- ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabati, muomalasi.

Murakkab tafakkur-muayyan masalani tafakkur operatsiyalardan foydalanib, atroficha mulohaza yuritib, bir qancha vaqt davomida, bosqichma-bosqich hal qilishdan iborat aql faoliyati.

Musiqa xotirasi-avval idrok qilingan musiqa eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va keyinchalik qayta esga tushirishdan iborat xotira turi.

Munosabat –odamlar orasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p kirrali jarayoni.

Musiqiy terapiya- (yunon.therapia-davolash) asab tizimi buzilgan bemorlarni davolashda musiqadan foydalanish, musiqa dori-darmon va tibbiy davolash usullarining o‘rnini ola bilmaydi, lekin musiqadan bemorning individual psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri foydalana olishi asab tizimi dam oladi.

Musiqiy qobiliyat-shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari.

Musiqiy psixologiya-san'at psixologiyasining sohasi bo‘lib, odamga va uning faol musiqa faoliyatiga ta'sirini o‘rganadi.

Mustaqillik –insonning o‘z tashabbusi bilan maqsadni belgilashi, unga erishish yo‘lini topshishi va amaliy yechimini topuvchi irodaviy xususiyati.

Muxabbat-intim va kuchli tuyg‘u, boshqa shaxsga, kishilar guruhi yoki g‘oyaga bo‘lgan kuchli ishtiyok.

Muxandislik psixologiyasi- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari operatorlarining faoliyatini o‘rganadigan, odam bilan mashina o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash, muvofiqlashtirish va sh.–k.larni o‘rganadi.

Mushak tuyg‘ulari-mushak tizimining ishlashi natijasida paydo bo‘ladigan sezgilar yig‘indisi, ushbu termin rus fiziologi I.M.Sechenov tomonidan kiritilgan.

Mu'tadil holat-ongimizda ba’zi fikr, shubxa, qo‘rquv mayd kabilarning ixtiyorsiz ravishda paydo bo‘lib, uzlusiz ravishda takrorlanishdan iborat ruhiy holat.

N

Nazariy tafakkur-tafakkur turlaridan bo‘lib, u ob’ektning xususiyatlarini, qonuniyatlarini ochishga qaratilgan bo‘ladi.

Nazariya-voqeilikdagi narsa va hodisalarning bog‘lanishlarini, munosabatlarini, muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi tushuncha kategoriya hamda qonunlar tizimidan iborat ilmiy tafakkur formasi.

Nazoratsizlik- ota-ona yoki bola boquvchisi bo‘lgan kishilarning bolaga yetarli e’tibor bermasligi natijasida bolaning stixiyali rivojlanishidan iborat ijtimoiy hodisa.

Nasixatgo‘ylik (fr.raisonneur-safsata)-nutqda uzundan uzoq, zerikarli jonga tegadigan ko‘rib nasixatomuz iboralarni ishlatishga doimiy moyillikdan iborat salbiy aql sifati yoki xarakter hislati.

Nasliy xususiyat –avloddan avlodga o‘tadigan tug‘ma xususiyatlar.

Nafrat-ehtiyoj, xoxish, qadriyatlarga qat‘iy ravishda salbiy munosabatni iroda etuvchi shaxs tuyg‘usi.

Narkomaniya- (yunon. narke -esankirash, qotib qolish, mania-aqlsizlikka berilishi) narkotik vositalarga ruju qo‘yish kasalligi. Ozroq qabul qilish eyforiya, ko‘proq esa narkotik uyquni, serrayib qotib qolishni keltirib chiqaradi.

Nevrozlar (yunon.neuron –tomir, nerv)–markaziy nerv tizimi kasalligi. Nerv jarayonlarining qo‘zg‘alish hamda zo‘riqishning zo‘riqishi natijasida kelib chiqadigan funktsional kasallik.

Nevropsixologiya-nerv-psixik kasalliklari haqidagi ta’limot.

Negativizm (lot.negativus-inkor etadigan) bolalar psixologiyasida atrofdagi kishilarga nisbatan bolaning sababsiz qarshilik ko‘rsatishi.

Neyron (lot.neuron-tola, ip)-asab tizimining asosiy tuzilishi va funktsional birligi, u asab katakchalari, to‘qima va undan uzoqlashuchi usimtalardan iborat.

Neyrolingvistika- nutq faoliyatining miya mexanizmlarini o‘rganuvchi psixologiya nevrologiya va lingvistikaning chegaraviy umumiyligi.

Neyropsixologiya –psixologiyaning sohasi;psixik jarayonlarning bevosita faoliyati bilan bog‘liq jihatlarini va bosh miyaning alohida tizimlari bilan aloqasini o‘rganadi. Dastlab nevrologiya bo‘limi sifatida rivojlangan.

Neofreydizm- Hozirgi zamon psixologiyasi va falsafasidagi yo‘nalish, asosan AKShda tarqalgan 1930-yillar oxirida psichoanaliz bilan AKShda sotsiologiya, etnografiya nazariyalarining chegalari qo‘silishi jarayonida vujudga kelgan.

Nervlar (lot.neuron-tola,ip)- tizimchasimon murakkab tuzilma.

Nerv jarayonlarining tuplanishi-markaziy nerv tizimidagi qo‘zg‘alish yoki tormozlanish jarayonlarining vaqt o‘tishi bilan dastlabki paydo bo‘lgan nerv joylariga to‘planishi qonuni.

Nerv jarayonlari harakatchanligi- bir jarayonning boshqasi bilan almashish tezligi U kutilmagan va qat’iy o‘zgarishlarga moslashishni ta‘minlaydi.

Nerv jarayonining induktsiyasi-oliy nerv faoliyatining qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat.

Nerv jarayonlarining muvozanatliliqi-bosh miya yarim sharlari qobig‘ining qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘zaro kuchlar nisbati bilan sifatlanadigan funksional xususiyatlaridan biri.

Nerv impulsi – nerv tolalari bo‘ylab tarkaladigan qo‘zg‘alish to‘lqinlari nerv hujayralarini ko‘zgalganda paydo bo‘ladi.

Nerv o‘tkazish tezligi-nerv qo‘zg‘alishi yoki impulsining nerv tolalari bo‘ylab qiladigan harakat tezligi. Odamda N.u.t. o‘rtacha 123 mil.sek.ni tashkil qiladi.

Nerv markazi – nerv hujayralarini (neyronlar) majmui. Boshqa nerv markazlari yoki ijro organlari faoliyatini boshqaradi.

Nerv tizimi – hayvonlar va odam organizmidagi tuzilmalar (retseptorlar, nervlar,ganglitlar,miya) majmuvi. Nerv tizimi organizmga ko‘zg‘atuvchilar ko‘rsatayotgan ta’sirni qabul etadi, bunda hosil bo‘lgan qo‘zg‘alishni o‘tkazadi, tahlil qiladi hamda shunga javoban moslashish reaksiyalarini vujudga keltiradi.

Nerv tizimining dinamikligi – miya po‘stlog‘ida muvakkat aloqalar paydo bo‘lishining osonligi va tezligi.

Nerv faoliyatining tiplari – kuchli, muvozanatli va tez, kuchli muvozanatli va sekin, kuchli muvozanatsiz va kuchsiz tiplarga bo‘linadi.

Nizo-o‘zaro ta’sir ko‘rsatayotgan kishilarning karama-qarshi qiziqishi.

Nikoh – erkak va ayolning bir-biriga va bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaruvchi oilaviy ittifoki, kelishivi.

Niyat – insonni qiziqtirgan, unga kuvonch baxsh etadigan eng ezgu xoxish va ehtiyojini koniktiradigan kelajakda bo‘lishini xoxlayotgan narsaning fikriy tasviri.

Nogironlik – kasal bo‘lishi yoki shikastlanishi oqibatida umumiy yoki kasb bo‘yicha mehnat qobiliyatining uzoq muddatga yoki butunlay yo‘qotilishi.

Nutq – og‘zaki yoki yozma fikr almashish, ya’ni til yordamida muloqot-muomala qilish jarayoni. U yozma va og‘zaki nutqga bo‘linadi. Nutq til bilan tarixiy jihatdan ham, funktsional jihatdan ham bog‘liqdir.

Nutq artikulyatsiyasi (lot.artikulo-dona-dona talaffuz qilaman)- nutq organlarining nutq tovushlarini talffo‘z qilish uchun birgalikdagi faoliyati.

Nutq apparati- nutq tovushlarini hosil bo‘lishi va ularni talaffuz qilishda ishtirok etuvchi organlar –nafas organlari yig‘indisi.

Nutq madaniyati-muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni iroda etish.

Nufuz-shaxsning ko‘pchilik tomonidan e'tirof etilgan fazilati, qadr-qimmati hamda atrofdagi boshqa kishilarga nisbatan ta'sirchanligi.

Nuqsonli bolalar-anatomik, fiziologik va psixik jihatdan normal rivojlanmagan bolalar.

O

Obrazli nutq-nutq jarayonida tilning uxshatmalaridan maqol va matallardan, so‘z va gap urg‘ularidan, intonatsiyadan hamda turli irodali harakatlardan foydalangan holda iroda qilingan nutq.

Obrazli xotira -tasavvur, tabiat va hayot manzaralarini, shuningdek, tovush, hid, ta'mlarni esda olib qolishdan iborat bo‘lgan xotira.

Obro‘ – insonning egallab turgan o‘rni, lavozimi,mavqeiga asoslangan ta'siri, birgalikda faoliyat ko‘rsatishda tegishli qarorga kelishga ishoniladigan shaxs.

Obyekt- (lot.obgiactum-buyum, narsa)-tashqi moddiy dunyoning bir qismi, sub'ektning bilish va faoliyat predmeti.

Ovoza (mish-mish)- shaxslararo aloqa qilishning o‘ziga xos turi bo‘lib, kimdir tomonidan o‘ylab topilgan, asoslanmagan voqeanning ko‘pchilikka tarkalishi.

Odam – ijtimoiy-tarixiy faoliyat sub'ekti, oliy darajada rivojlangan mavjudot.

Odamgarchilik-o‘zaro muomala va munosabatlarda insonga xos bo‘lgan barcha ijobjiy fazilatlarga rioya qilishdan iborat xarakter hislati.

Odam biotipi – odamning tiplarga ajratishning bir turi. Biologik, tabiiy xususiyatlariga ko‘ra ajratish. Tashqi muhit ta'sirida odamning xulq atvorida irodalanadigan belgilari.

Odamning ichki dunyosi-shaxsning dunyoqarashi, g‘oyalari, ideallari, orzulari, qadriyatlarini yig‘indisi.

Odamovichilik- odamlarga qo‘shilmay, ko‘pchilikka yoktirmay yakka holda yashashni afzal ko‘rish.

«Odam- mashina» tizimi- muxandislik psixologiyasining o‘rganish predmeti, bunda odam operator moddiy ne‘matlarni iшлаб chikiksh jarayonida texgik ko‘rilmalar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.

Odat – o‘rganib kolongan va muayyan vaziyatda bajarish individ uchun ehtiyojga aylangan hatti-harakat. Odat ongsiz holatda shakllanadi. Muayyan tarbiya mahsuli bo‘lishi, xarakterning barqaror xususiyatiga aylanishi, avtomatizm belgilariga ega bo‘lishi mumkin

Odob – kishining boshqalardan eshitishga va ularda ko‘rishga tayyor bo‘lgan narsani ulardan ko‘tish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish qobiliyati va malakasi.

Odobsizlik – muloqot jarayonida muloqotga kirishganlarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatlarini izdan chiqishiga olib keladigan va ba’zan mojaroli vaziyatlarni yuzaga keltiradigan darajadagi buzilishi.

Oila- turmush ko‘rish, karindosh urugchilik, asosida ko‘riladigan kichik guruh.

Okkultizm – insonda va kosmosda yashirin kuchlar mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limotlarning umumiyligi nomi. Unga ko‘ra bu kuchlarni maxsus psixik mashqlardan o‘tgan va o‘zini faqat shu yo‘lga bagishlagan kishilargina paykay oladi.

Oldindan aks ettirish- psixik aks ettirish usullaridan biri.U ma’lum jarayonning o‘sib rivojlanib, borishini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini yaratadi.

Oligofrenologiya (yunon.oligos-kam,oz miqdorda phren-aql)- ona kornida chakalok rivojlanishining buzilishi oqibatida psixik rivojlanishning yetarli bo‘lmasligi natijasida tug‘ma yoki orttirilgan aqliy zaiflik. U debillik, imbetsillik va idiotiyaga bo‘linadi.

Oligofrenopsixologiya (yunon.oligos-kam,oz miqdorda phren-aql, logos-ta’limot)-ongning yetarlicha rivoj topmaganligining og‘ir darajasida ega bo‘lgan insonning psixik rivojlanishini va uni davolash yo‘llarini o‘rganuvchi psixologik soha.

Oliy psixik funktsiyalar -(yunon.psyche-ruhiy, lot.functio-bajarish) - o‘zining kelib chiqishi bilan ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, butun hayot davomida shakllanib boradigan murakkab, tizimli psixik jarayonlar.

Oliy nerv faoliyati – markaziy nerv tizimi oliy bo‘linmalarning faoliyati, hayvonlar va odamning atrof muhitga mutlok moslashuvini ta’minlaydi. Uning asosida shartli reflekslar va murakkab shartsiz reflekslar yotadi.

Oliy nerv faoliyati tiplari- nerv jarayonlarining muayyan individ oliy nerv faoliyatini sifatlaydigan muhim va barqaror xususiyatlari yig‘indisi.

Ong – psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Insonni voqelikni tafakkurida aks ettirish qobiliyatini aniqlaydi. Psixikaning oliy, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo‘lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi. Ong tarkibiga uning psixologik ta'rifi-ong, sub'ekt bilan ob'ekt o‘rtasidagi farqlanishi,kishining maqsadni ko‘zlovchi faoliyati va muayyan munosabatlar kiradi.

Oltinchi sezgi- odamdagи asosiy besh sezgidan tashqari har xil holatlarda namoyon bo‘ladigan sezgi.

Ong va faoliyat birligi – ong va faoliyatning uzlusiz birligini ularning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlovchi psixologik tamoyil, ong faoliyat jarayonida namoyon bo‘libgina qolmasdan balki tarkib ham topadi

Ongli harakatlar-instinktiv,impul'siv hamda avtomatlashgan harakatlardan farq qiladigan, oldindan belgilangan maqsadga muvofiq asabiy hamda irodaviy kuch sarflash rkali bajaraladigan harakatlar.

Ongosti – inson xulqi va ongiga sezilarli ta'sir eta oluvchi muhim (sezilmaydigan) hisoblanmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar majmui.U odamning hatti-harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir eta oladi.

Ongusti – ijodiy muammoni hal qilishda shaxs psixik faolligini individual ongli nazorat qilish imkoniyati bo‘lmaydigan holat.

Ongsizlik – psixikaning quyi darajasi, unga alaxsirash, tush ko‘rish va x.k. kiradi. kishining o‘zini tuta olmaydigan darajaga yetkazadigan ta'sirotlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar, hatti-harakatlar va holatlari majmui.

Ontogenetika – (yunon.ontos-asl,tub genesis-tug‘ilish, paydo bo‘lish.)- individning yoshlik davridan to umri oxirigacha bo‘lgan davrdagi o‘zgarishlar majmumi.Kishi organizmining rivojlanish jarayoni.

Operativ xotira (lot.operatio-harakat)- xotira turi. Kishi tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan zaruriy hatti-harakatlar, shularga xizmat qiluvchi mnemik jarayonlar.

Optimizm (lot.optinus-eng yaxshi)- xushchakchaqlik,tetiklik, kelajakka ishonch bilan tulib-toshgan ijobiy xarakter hislati yoki emotsiyonal holat.

Organizm – (yunon.organismus-ko‘rol,aslaxa) jonsiz materiyadan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanuvchi tirik mavjudot.

Organik sezgilar-organizmning ichki muhitida sodir bo‘layotgan jarayonlarni aks ettiruvchi sezgilar.

Organik ehtiyoj-organizmning assimilyatsiya va disimilyatsiya hodisalariga bo‘lgan muhtojligini sezishdan iborat ehtiyoj turi.

Oreal effekti – biror inson haqida beriladigan birinchi ma'naviy bahoning kelgusida yana baholashga ijobiy ta'siri. U bola haqida o'qituvchi fikrini oshirib yuborishga sababchi bo'lishi mumkin.

Orzu- shaxsning o'zi uchun yoqimli bo'lgan istikbol obrazlarini ongida yaratishdan iborat xayol turi.

Oriyentatsiya refleksi (lot.oriens-sharq, reflexus-aks etish)- shartsiz refleksning bir turi u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi.

Orsiz kishi (subutsiz kishi) – o'z xatolarini bila turib qonun va qoidalarni bo'zuvchi, noma'qul ishni qiluvchi kishi. U betga chopar, o'jar, rahm- shafqatsiz bo'ladi.

Ortodoksal – biror ta'limotga berilgan, undan sira qaytmaydigan, chetlashmaydigan sobitqadam.

Ochko'zlik- birovlarning mulkiga yoki mavqeiga suqlik hamda ta'magarlik munosabatidan iborat salbiy xarakter hislati.

Osoyishta tip- nerv tizimining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari teng hamda o'rtacha kuchga ega bo'lgan tipi.

Og'riq sezgilar-organizmning ayrim qismlaridagi og'riqni aks ettirishdan iborat sezgi turi.

O'

O'jarlik-birovlarning iltimos, maslaxat, talab va ko'rsatmalariga nisbatan asossiz ravishda qarshilik ko'rsatishdan iborat salbiy xarakter hislati.

O'ziga-o'zi baho berish – shaxsning o'zi tomonidan o'ziga, imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o'rniga baho berishi.

O'z-o'zini anglash- individning o'zi haqida nisbatan barqaror anglangan tasavvurlar tizimi. Uning asosida individ odamlar bilan o'z munosabatini o'rganadi.

O'zini-o'zi gipnoz qilish – o'zini-o'zi ishontirishi orqali gipnoz qilish. U geterogipnozga karama-qarshi hisoblanadi.

O'z-o'zini ishontirish-o'z-o'ziga qaratilgan ishontirish jarayoni bunda ishontiruvchi cub'ekt va ob'ektning birligi namoyon bo'ladi.

O'zini-o'zi kuzatish – insonning o'zini-o'zi ruhiy holati, ma'naviy va jismoniy faoliyatini kuzatish usuli.

O'zini-o'zi nazorat qilish – insonning o'z holatini o'zi tomonidan boshqarib nazorat qilishi.

O'zini-o'zi tuta qilish – muomalada boshqalar bilan hisoblashish, ularning axvolini tushunish atrofdagilarga extiyot bo'lib muomala qilish, ularga ozor

bermaslik, kalbini yaralamaslik.O‘z fikr, hissiyot va hatti-harakatlarini maqsadga muvofiq yunaltira olishdan iborat xarakter xilati.

O‘z-o‘zini xulqini boshqarish-bunda shaxs o‘z xulq-atvorini qabul qilgan qaroriga ko‘ra boshqarib, zarur hollarda faoliyatdagi nuqsonlarni to‘zatadi.

O‘z-o‘zini himoya qilish-organizmning o‘z dushmanlaridan, xavf-xatardan saqlanish uchun ishlatiladigan tug‘ma harakatlari tizimi.

O‘yin –faoliyat turlaridan biri, bolalarning kattalar faoliyatidan, hatti harakatidan taqlid qilgan holda o‘ziga xos o‘yin ko‘rsatishi.

O‘rganish – bilish, shaxsiy tajribani individual egallash jarayoni va uning natijasi.

O‘rgatuvchi yoki shakllantiruvchi tajriba-psixologiya metodi unda shaxsdagi zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

O‘rta miya – bosh miyaning Varoliy ko‘prigi bilan oralik miya ortasida joylashgan bo‘lagi. Unda katta yarim sharlardan keladigan efferent utkazuvchi tolalar va ko‘z harakatini mushaklar tonusini boshqaruvchi markazlar joylashgan.

O‘smirlik davri – 10-11 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan bolalarning rivojlanish va tarakkiy etish davri. Bolalikdan uspirinlik yoshgacha bo‘lgan yillar oraligi kiradi.

O‘spirinlik davri-15-18 yoshdagi bo‘lgan davr, ilk yoshlik davri.

O‘qitish – bola faoliyati va xulq atvorini insoniyat ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirishga sari yo‘naltirilgangan faoliyat jarayoni.

O‘quv – mehnat qilish va yetuk bo‘lish uchun insonga zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini uzlucksiz egallash jarayoni.

O‘quvchi shaxs haritasi- Platonov tomonidan tuzilgan.

P

Pantomimika-(yunon.pantomimikos-hamma narsaga taqlid qiluvchi) inson gavdasining mimikasi, imo-ishoralar birga uning psixik holatini, ayniqsa his tuyg‘ularini ifodalovchi harakatlar.

Parabioz-kuchli qo‘zg‘atgich ta’siri natijasida yuzaga keladigan, o‘tkazuvchanligi hamda qo‘zg‘aluvchanligi yo‘qoladigan qo‘zg‘aluvchi to‘qimaning holati.

Paralogizm (yunon.paralogismos)-to‘g‘ri fikrlash qoidalarini buzish, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yish natijasida noto‘g‘ri xulosa chiqarish.

Paramneziya (yunon.paraoldida,yonida, mnesis-eslash)- sodir bo‘layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilganidek bo‘lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi, yolg‘on esdaliklar yoki xotira chalg‘ishi.

Paranoyya (yunon.paranoi–aqlsizlik)-muttasil alaxsirash g‘oyalari, ba’zan gallyutsinatsiyalar bilan sifatlanuvchi surunkali psixik cassallik..

Parapsixologiya (yunon.para-oldida,yonida,psyche-jon,logos-ta'limot)- psixologik tadqiqot sohasi. Sezgi organlari ishtirokisiz bo'lib o'tadigan idrok usullarini, shuningdek, organizmdan tashqarida paydo bo'ladigan tabiiy hodisalarga tirik mavjudotning mushaklar harakatisiz ta'sir etish shakllaridan biri, 19-asr oxirida paydo bo'ldi.P muammosi baxsga molik soha.

Prasimpatik nerv tizimi-vegatativ nerv tizimining ichki organlar faoliyatini boshqarishda ishtirok etadigan qismi.

Parishonxotirlilik- kishining maqsadga qaratilgan, yo'naltirilgangan faoliyatining funktsional yoki organik buzilishi, diqqatni ma'lum ob'ektga qarata olmaslik.

Passalar (fr.pases-passalar)- gipnoz jarayonida patsiyentni gipnotik holatga solish uchun uning ko'zi oldida va atrofida qilinadigan bir me'yordagi qo'l harakatlari.

Pastkashlik-o'z shaxsiy manfaati uchun har qanday adabsizlikka, xatto odam sha'nini yerga urishga, har qanday vijdonsizlikka hamisha tayyor turishdan iborat eng tuban salbiy xarakter hislati.

Patogenez-(yunon.pathos-azoblanish,genesis-kelib chiqish) patologiyaning kasallikning kelib chiqish va rivojlanish sabablarini o'rghanuvchi bo'limi.

Patogenezes- insonga tarbiya berish jarayonida ruhiyatini yuzaga kelishi va rivojlanishni o'rghanuvchi psixologik soha.

Patologiya- (yunon. pathos-azoblanish, logos-ta'limot)- inson organizmidagi kasallik jarayonlari va holatlarini o'rghanuvchi fan.

Patopsixologiya (yunon.pathos-azoblanish)- psixologiyaning insonni turli kasalliklar natijasida ruhiy rivojlanishida paydo bo'ladigan ruhiy nuqsonlarni o'rghanuvchi sohasi, psixiatriya bilan o'zviy bog'liq.

Patsiyent (lot.patiens-chidab turuvchi, sabr qiluvchi)- gipoterapiya sharoitlarida davolanuvchi yoki ommaviy psixologik tajribalarda tajriba ob'ekti bo'lib hisoblangan shaxs.

Pedagogik muloqot -tarbiyachi va ta'lim-tarbiya oluvchilarining o'zaro birgalikdagi muloqotlari.

Pedagogik psixologiya (yunon.paidogogike-tarbiya,psixologiya)- kishiga ta'lim-tarbiya berish jarayonida insonning psixik taraqqiyotini o'rghanuvchi va shu jarayonning psixologik asoslarini ishlab chiquvchi psixologik soha.

Pediatriya (yunon.paidion-bola,iatreia-ta'limot) -bolalar kasalliklari haqidagi fan.

Pedologiya (yunon.paides-bola)- XX asr boshlarida vujudga kelgan psixologiya va pedagogikadagi oqim.

Periferik nerv tizimi (yunon.periperia-atrof, chet)- markaziy tizimini ta'sirotni qabul qilib oladigan retseptorlar hamda javob reaktsiyasini qaytaruvchi a'zolar bilan boglaydigan sezuvchi nervlar tizimi.

Perseveratsiya (lot.perseveratio-sabablilik, kaysarlik)- harakat va kechinmalarning inson ongida ketma-ket paydo bo'lishi.

Personlashtirish (lot.persona-shaxs)- jonlantirish-jonsiz narsa va tushunchalarni inson obrazida tasavvur etish.

Pertseptiv tizim-idrokning muayyan jarayonini ta'minlovchi analizatorlar yig'indisi.

Pertseptiv harakatlar (lot.perceptio-idrok etmoq) -idrok jarayoning asosiy tuzilishi birligi, bu idrok ob'ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

Peshkadam- bu shunday shaxski , guruhning qolgan barcha a'zolari uchun o'zlarining manfaatlariga daxldor bo'lган hamda butun guruh faoliyati yo'naliishi va xarakterini belgilashda o'zini xaqli deb hisoblaydi.

Piktografik nutq-(lot.piktus-ranglar bilan yozilgan, yunon.grapho-yozaman, «suratl xat»)-yozma nutqning narsalar, hodisalar va harakatlarni hali qat'iy ma'noga ega bo'lмаган shartli belgililar bilan irodalashdan iborat iborat tarixan tashkil topgan bir turi.

Piktogramma (lot.piktus-rangli tasvir, yunon.gramma-yozuv belgisi)- bevosita eslab qolishni o'rganishda foydaniladigan grafik obrazlar majmui.

Pirson korrelyatsiya mezoni (lot.correlatio-nisbat, o'zaro aloqa)-statistik ko'rsatkichlari hajmi kichik bo'lган qator raqamlarining o'zaro munosabatini aniqlash uchun ishlataladi.

Plato (fr.platean-baland tekistlik)- malakalar egri chizig'ining ma'lum bir malakaning shakllanishi yoki rivojlanishidan nisbatan o'zgarmas darajani ko'rsatuvchi, abtsissa o'qiga paralel holda ketuvchi qismi.

Proaktiv tormozlanish (lot.pro-olga,aktivus-faol)- xotirada puxta o'zlashtirishdan yuzaga keladigan faoliyat ta'siri natijasida keyingi materialni esga tushirishning qiyinlashuvi.

Psixika (yunon.psychikos-ruhiy)- yuksak darajada tashkil topgan materiyaning voqelikning alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati, jonli tizimining atrof muhit bilan o'ziga xos o'zaro bog'liqligining natijasi. Eng muhim xususiyati faollik. Psixikaning oliy shakli-ong, faqat insongagina xosdir.

Pralogik tafakkur- frantsuz faylasufi L.Levi-Bryul tomonidan «ibridoiy» xalqlar tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish uchun kiritilgan termin.

Proyektiv metod (lot.progektus-oldinga tashlangan, yunon.methodos-tadqiqot)-shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mas. tajriba vaziyatlarida tasvirlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

Propriotseptiv sezgilar (lot.proprius-xususiy,maxsus, recipere-qabul qilmok) tana turli qismlari, holatlari va ularning harakatlari haqida darak beruvchi sezgilar.

Professiografiya (lot.professio-kasb, grapho-yozaman)-kasblarning ijtimoiy-psixologik va boshqa xususiyatlarini o‘rganadigan yo‘nalish.

Psixik faollik-shaxs psixik funktsiyalarining odatdagidan kuchli yoki faol ravishda ishlashi.

Psixoanaliz (yunon.psyche-ruh, analyses-bo‘linish)- XIX-asr oxiri XX-asr boshida Z.Freyd tomonidan ilgari surilgan psixoterapiya usuli va psixologik ta’limot, g‘ayrishuuriy psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo‘ygan.Ongdan unga muvofiq kelmaydigan mayllar va ruhiy kechinmalarni sikib chiqarish paytida har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglishish va b.)ning asosiy manbai sifatida qaraladi. U Freydizm deb ham ataladi.

Psixoasteniya (yunon.psyche-ruh,astheneia-ojizlik, kuchsizlik)- voqelikni anglay olmaslik, hayot notekisligini sezish va befoyda ortiqcha aql o‘rgatishni sezmaslik, o‘ziga ishonmaslik, badgumonlik, ruhan ezilganlik va x.k. bilan tavsiflanuvchi, ammo hali ruhiy kasallik bo‘Imagan nevroznning bir turi.

Psixodramma (yunon.dramma-harakat)-guruhiy psixoterapiya turi bo‘lib, bunda ishtirokchilar navbatma-navbat aktyor va tomoshabin rolida bo‘lishadi.

Psixozlar- bosh miyaning zararlanishi natijasida inson psixik faoliyatining turli formada va darajada buzilishidan iborat kasalliklar yig‘indisi.

Psixopatiya- shaxsning konstitutsional va genetik sabablariga aloqador norasoligi.U xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi (psixoasteniklar, isteriklar va b) Psixopatiya bilan «normal» xarakterning aniq chegarasi yo‘q.

Psixogenetika-(yunon.psyche-ruh ,genetikos- tug‘ilishga, kelib chiqishga oid)- odamning induvidual psixologik xususiyatlarini kelib chiqishida va shakllanishida genotip va muhitning rolini o‘rganadi.

Psixogigiyena-(yunon.psyche-ruh,higienos-shifobaxsh)-umumiy gigiyenaning insonning nerv psixik salomatligini saqlash va mustahkamlash tadbiralarini ishlab chiqaradigan bo‘limi.

Psixodiagnostika (yunon. diagnostikos-bilishga kodir)- shaxsning induvidual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va ularni ulchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli

Psixologik test-qisqa muddatli, yozma savolli topshiriq bo‘lib u orqali kishilar qobiliyati, ko‘nikma, bilim va malakalari, kasbga layoqati va shu kabilar aniqlanadi.

Psixik keskinlik-faoliyati yoki hatti harakati bajarishga, ma'lum odamlar bilan muloqotga kirishga to‘sinqlik qiluvchi motiv.

Psixologiya (yunon.psyche-ruh, logos-ta'limot, bilim) psixik hayot hodisalari psixikani o‘rganuvchi fan. Psixik faoliyat (sezgi, idrok, xotira, hissiyot, iroda, tafakkur va b.) qonuniyatlar bilan shug‘ullanadi. Hozirgi davrda psixologiyaning 50 dan ortiq ilmiy yo‘nalishlari mavjud.

Psixologiya kategoriyalari (yunon.kategoria-hukm, ta'rif)- psixologiyaning psixik hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi eng asosiy umumlashtirilgan tushunchalari.

Psixologiya metodlari-psixik hodisalar va ularning qonuniyatlarini o‘rganadi.Mas. O‘zatish, tajriba, lab-ya tajriba, tabiiy kuzatuv, o‘z-o‘zini kuzatish, biografiya.

Psixokorreksiya (ing.korrection-to‘g‘rilamok)-shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarini to‘zatish usullarini qo‘llash jarayoni.

Psiholingvistika- (lot.lingua-til)- psiholoigiyadagi ilmiy yo‘nalish, nutq jarayonlari va uning idrok qilinishi mazkur tilning tizimi bilan takkoslanib o‘rganadi.

Psixologik tavsifnama-ma'lum bir kishining aqliy, axloqiy, irodaviy sfatlarini, qiziqishlari, dunyoqarashi, e'tiqodi shuningdek psixologik xususiyatlari-xarakteri, temperamenti, qobiliyati va iste'dodi ob'ektiv ravishda tasvirlab yozilgan shaxsiy xujjatdir.

Psixologik tadqiqot usuli - u 4 bosqichga bo‘linadi.1.Tayyorgarlik bosqichi 2. Tajriba-sinov bosqichi 3.Tadqiqotga ishlov berish .4.Olingan natijalarni izohlash bosqichi.

Psixologik fanlar tizimi-psixologiya taraqqiyoti bilan, umumiy psixologiyadan ajralib chiqqan yagona psixologiya fanini tashkil qiluchi uning mustaqil sohasi.

Psixologning kasbiy odobi- psixolog o‘z faoliyati davomida kasbiga xos axloqiy, ma'naviy talablarni, boshqalar bilan muomalada mashg‘ulotlardagi axloq va xulq normalari.

Psixik sur'at-psixik faoliyatning yoki muayyan psixik jarayonning sodir bo‘lish tezligi.

Psixologik xizmat-psixologiyani amaliyotda qo‘llash tizimi.U ishlab chiqarish, xalq ta'limi, soglikni saqlash, sport, yuridik va x.k. larda psi-k ekspertiza, tashhis va maslaxat vazifasini bajaradi.

Psixologik metodikalar- jamoa yoki alohida kishini psixologik o‘rganish maqsadida tuzilgan savollar to‘plami.

Psixofizika-(yunon.physis-tabiat) psixologiya bo‘limlaridan, psixik xususiyat va qonuniyatlarining fiziologik asoslarini o‘rganadi.

Psixofizik parallelizm (yunon.paralleleros-yonma-yon boruvchi)-psixofizik muammo talqini, bunga ko‘ra psixik va fiziologik jarayonlar bir-biriga boglanmagan holda sodir bo‘ladi.

Psixofizioliya-psixologiya va neyrofizioliyaning psixikani uning asoslari bilan birga o‘rganishga hamkorlikdagi sohasi.

Psixologik tashhis-psixolog tomonidan shaxs individual- psixologik xususiyatlarni o‘rganish , uni kelajakdagi taraqqiyot yo‘llarini prognoz qilish va belgilab olish maqsadida o‘tkaziladigan psixodiagnostik tekshiruvlar yakuniy natijasi va tavsiyalarni belgilab olish.

Psixopatiya (yunon.psyche-jon, pathos-azoblanmok)-psixik faoliyatning uyg‘unsizligi, ayniqsa emotsional –iroda va mayl sohalaridagi uyg‘unsizlik bilan sifatlanuvchi potologik formasi.

Psixologik tahlil-inson psixik faoliyatining psixologik shart-sharoitlari va tarkibini ohib berishdan iborat ilmiy-tekshirish metodlaridan biri.

Psixologik tajriba- psixologiya sohasiga doir ba’zi qonuniyatlarni amaliy hamda ommaviy ravishda namoyish qilish.

Psixoterapiya – ko‘pgina psixik nerv va psixosomatik kasallikkarni davolash maqsadida kasal kishining his-tuyg‘usi, fikri va ongiga so‘zli va so‘zsiz ta’sir etuvchi yaxlit davolash usuli

Psixologik test- psixologik standart mashqlar Bu mashqlarning bajarish natijalariga ko‘ra tekshirilayotgan kishining psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek bilim, malaka va ko‘nikmalarini to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

Psixoformaqologiya-(yunon. farmakon-dori-darmon, logos-ta'limot) - psixologiya tarmog‘i.Odam psixikasi dori-darmon ta’sirini o‘rganadi.

Psixologiya tarixi-psixologiya tushuncha va faktlarga, ularning qonuniyatlari kelib chiqishning qadimgi davrdan to Hozirgi davrgacha bo‘lgan holatini o‘rganadi.

Psixologik to‘sinq-ma'lum faoliyat yoki ish-harakatlarni amalga oshirishda, jumladan bironta odam yoki kishilar guruhi bilan munosabatda bo‘lishga to‘sinqlik qiladigan sabab.

Psixologik jurnal-Rossiya fanlar akademiyasining nashri. 1980 yildan boshlab yiliga 6 marta nashr etiladi.

Psixologik trening – o‘zaro muomala madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgangan ruhiy-psixologik ishlarni faol usuli. Pertseptiv va ish jarayonidagi muomala treninglari mavjud.

Psixoprofilaktika – o‘quvchi ota-onasi yoki o‘qituvchilarga u yoki bu psixologik nuqson va kasallikkarni kelib chiqishini oldini olish maqsadida uyushtiriladigan tadbirlar majmui.

Psixikaning integratsiyasi- induvidual rivojlanish jarayonida ayrim-ayrim ruhiy jarayonlar, holatlar, maxsullar va xususiyatlardan yaxlit psixika ongning tarkib topishini irodalovchi qonun.

Psixika taraqqiyot- vaqt o‘tishi bilan inson ongida, psixikasida miqdoriy, sifat va tarkibiy o‘zgarishlar.

Psixik rivojlanish tashhis (yunon.psychikos-ruhiy,diagnostikos-aniqlashga oid)- shaxsnинг psixik rivojlanishi va individual xususiyatlari darajasini aniqlash maqsadida uyushtiriladigan tashhis.

Psixologik himoya - karama-qarshi ziddiyatli tuknashuv natijasida hosil bo‘lgan xayajonli hissiyotni susaytirish yoki bartaraf qilish maqsadida shaxs ruhiy holatini turg‘unlashtiruvchi,maxsus moslashtiruvchi tizim.

Psixik jarayonlar -bu faoliyatning xozir ta'sir etadigan (sezgi, idrok) yeki qachonlardir yuz bergan ko‘zg‘atuvchiga javob tariqasida ro‘y beradigan shu ta'sirni umumlashtiradigan, ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur xayol) oldindan ko‘ra bilishga yordam beradigan, bir xil ta'sirotlar natijasida faoliyat (his –tuyg‘u) ni kuchaytiradigan yoki susaytiradigan,umuman faollashtirib yoki sekinlashtiradigan,odamlar xulq-atvoridagi tafovutlarni aniqlaydigan boshqaruvchilaridir.

Psixik reaktsiya- tashqi yoki ichki ta'sirotgaga javob sifatida paydo bo‘ladigan har qanday psixik jarayon.

Psixik temp-(it,tempo-vaqt)- psixik faoliyatning yoki muayyan psixik jarayonning sodir bo‘lish tezligi.

Pubertat davri (lot.pubertas-jinsiy yetuklik) –jinsiy yetuklik davri bo‘lib, unda jinsiy a’zolar va jinsiy bezlarning tula shakllanishi kuzatiladi.

Q

Qaysarlik - inson irodasining kamchiligi sifatidagi axloq xususiyati. kishining boshqalar maslaxati, iltimosi, ko‘rsatmasiga qarshi borib o‘z fikri va bilganicha yo‘l to‘tish holati.

Qaytarma aloqa- barcha murakkab tizimlarda boshqarish va harakatlarni tartibga solib turishnng muhim asosi.

Qanoat – hayotda oziga ham, ko‘piga ham og‘irchilikka ham, xursandchilikka ham kunikish, sabr qilish, nafsni tiyish va x.k.

Qaror qabul qilish-masalani, yechimni hal qilish, yechish usullaridan birini tanlash.

Qat’iylik – shaxsnинг irodaviy xususiyati: ko‘zlangan maqsad uchun o‘z axloqini uzoq muddat yunaltira olish va nazorat qila olish qobiliyati.

Qayta tiklovchi xayol – o‘z asosida tasviriga muvofiq keladigan obrazlar tizimida yaratuvchi xayol. Faol xayolning bir turi.

Qayta eslash- xotirada saqlanganlarni faoliyat va muloqotda qayta tiklanishi. Qiyosiy (chogishtirma, takkoslash) psixologiya - hayvon va odam psixikasining kelib chiqishi va taraqqiyotidagi umumiylilik hamda tafovutni o‘rganuvchi soha.

Qarilik psixozlari-kariyalarda 65 yoshdan oshgandan sung boshlanadigan turli psixik kasalliliklar yig‘indisi.

Qaror qabul qilish- masalalarini hal qilish, oxirgi bir fikr nuqtasiga tuxtalib yechish usullaridan birini tanlashdir.

Qiziqarli psixologiya- psixologiyaning ruhiy hayotning turli sohalariga xos bo‘lgan qonunuiyatlarini ixcham ommaviy va ilmiy tilda bayon qili beruvchi maxsus soha.

Qiziqish (lot.interesum-muhim ahamiyatga ega bo‘lmok)- inson bilish ehtiyojlarining hissiy – xayajonli, ehtirosli ko‘rinishi, u faoliyatga undovchi kuch irodasidir. Qiziqish keng va tor, chuqur va yuzaki barqaror bo‘lishi mumkin.

Qiliq – inson axloqini belgilab beruvchi ko‘rinish sifatida baholanadigan ongli faoliyat; bu orqali inson o‘zini guruh,jamiyatda tabiatga bo‘lgan munosabatda shaxs sifatida irodalaydi.

Qisman unutish- zarur paytda avval idrok qilingan yoki esda qoldirgan materiallarning hammasini emas, balki ayrim bo‘laqlarinigina esga tushira olmaslikdan iborat xotira jarayoni.

Qisqa muddatli xotira - ma'lum vaqt ichida kishining material bilan ishslash faoliyatida faqat avtomatlashtirilgan usullarni qo‘llanib ishslash imkoniyatini beruvchi esda olib qolish.

Qobiliyatlar – u yoki bu unumli faoliyatni muvaffakiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim,ko‘nikma va malakalarini egallay olishni ta'minlaydigan shaxsning individual – psixologik xususiyatlari. Qobiliyatning tug‘ma asosi layoqat, zexn. U faoliyat usullarini egallah tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo‘ladi. Eng tarakkiy etgan qobiliyatlar majmui – iste'dod, daxo hisoblanadi.

Quvnoqlik –shaxsning atrofdagi kishilarga nisbatan ijobiy munosabatda irodalanadigan ijobiy optimistik kafiyatidan iborat emotSIONAL holat.

Qo‘zg‘alish – tirik tanadagi to‘qimaning qo‘zg‘atgichga faol javob berish xususiyati

Qo‘zg‘aluvchanlik-organizmning nerv yoki emotSIONAL qo‘zg‘alish qobiliyatiga ega bo‘lishdan iborat inluvidual xususiyat.

Qo‘zg‘ovchi-qo‘zg‘alish jarayoni keltirib chiqaradigan ob'ektiv narsa va hodisalar, ularning sifat va xususiyatlari, shuningdek, ichki organlarda sodir bo‘ladigan fiziologik hamda bioximik o‘zgarishlar yig‘indisi.

Qo‘zg‘alishning tuplanishi-nerv, mushak bezlarga taalukli hamda emotsional qo‘zg‘alishning ketma-ket ta’sir qilgan bir necha qo‘zg‘ovchilar natijasida kuchayishi.

Qo‘msash - o‘z Vatani, yakin kishisi bilan aloqasi umrbod yoki vaqtinchalik o‘zilgan shaxslarda ro‘y beradigan reaktiv holat.

Qunt-muayyan faoliyat to‘rini tirishkoklik, serxafsalalik va ishtiyok bilan bajarishda irodalanadigan ijobi yiodaviy sifat va xarakter hislati.

Qo‘rqinch-odamning o‘ziga yoki yakin kishilariga taallkli bo‘lgan haqiqiy yoki xayoliy xavf-xatarga nisbatan yuzaga kelgan emotsional holat.

Qo‘rib yodlash- materialning mazmuniga tushunmasdan yod olishdan iborat salbiy esda qoldirish turi.

Qo‘shimcha ranglar-boshqa ranglar bilan qo‘shilib, ok yoki bo‘z ranglar hosil qiluvchi ranglar.Mas, kizil bilan yashilning qo‘shilishi ok rangni hosil qiladi.

R

Rapport (fr.rapport-takrorlanadigan)- gipnoz jarayonida gipnozchi bilan gipnoz qilinuvchi o‘rtasida gipnozchi tomonidan o‘rnataladigan nutqiy aloqa.

Ratsionalizm (lot.rationalis-aqliy, oqilona) -bilish nazariyasidagi bilimlarning manbai va ularning to‘g‘riligining mezoni aqldir, deb da’vo qiluvchi metafizik oqim.

Raven metodikasi-ing. psixologi Raven tomonidan ishlab chiqilgan qobiliyatni aniqlash testi.

Raddiya-tafakkurning turli operatsiyalari hamda formalaridan foydalangan holda biror fikrning yolg‘on ekanligini isbotlashdan iborat bo‘lgan mantiqiy operatsiya.

Ranglar aralashmasi qonuni-ko‘z tur pardasiga bir vaqtning o‘zida turli uzunlikdagi nurlar ta’sir etishi natijasida shu ta’sir etayotgan ranglarning birortasiga o‘xshamaydigan qo‘shimcha rangning paydo bo‘lishi.

Rang ko‘rliyi-ranglarning sezish qobiliyatining to‘liq yoki qisman buzilishi.

Rang sezish- ko‘zning idrok qilinayotgan narsa va hodisalarining rangini ajrata olish qobiliyatini.

Rang toni-muayyan rangni boshqa rangdan ajratib turuvchi maxsus rang sifati. Odam ko‘zi 150 ga yakin ranglarni ajrata olish qobiliyatiga ega.

Readaptatsiya (lot.re-boshqadan, yangidan, adaptatio-tuzalmok, to‘g‘rilamok)- ruhiy kasallika uchrab, maxsus davolash ko‘rsini o‘tgandan bemorning yana mehnat faoliyatiga kaytishi.

Reaktiv holat-og‘ir ruhiy azoblanish natijasida paydo bo‘ladigan psixik kasalliklar. (depressiya, vaxima,qo‘rquv va b.)

Reaktologiya (lot.re-qarshi,actio-harakat,logos-ta'limot)- inson psixikasini tashqi qo‘zg‘ovchilarga nisbatan qaytariladigan reaktsiyalardangina iboratdir deb hisoblovchi mexanistik oqim.

Reaktsiya (lot.re-qarshi,actio-harakat)-organizmning tashqi va ichki ta'sirotlarga qaytariladigan javob harakati.

Reaktsiya vaqtı – stimul yuzaga kelishidan boshlab reaktsiya boshlangunga qadar o‘tadigan vaqt.

Reallik-inson ongidan tashqari mavjud bo‘lgan ob'ektiv voqelik.

Reduktsiya (lot.reductio-o‘z holiga qaytarish)- a'zolarning oddiylashish tomonga rivojlanishi

Regressiya – xulq-atvorning juda sodda, ba'zan infantil holatga kaytishi

Rezidentlik – u yoki bu to‘sinqqa bo‘lgan sabr-bardosh, qarshilik ko‘rsata olish.

Reyting-(ing.rating-baholash, darajalash,turkumga kiritish)- talabalar, o‘quvchilar o‘quv faoliyatini baholash.Mas.(seminar, lab-ya, referat yozish,test, kollokvium va x.

Relaksatsiya (lot.relaxatio-yumshatmok)- odamdagи jismoniy zo‘riqishning psixik keskinligini tugashi natijasida bo‘ladigan tinchlik, osoyishtalik holati.

Relyativizm (lot.-relativus-nisbiy)-inson bilimlarining nisbiy xarakterini ro‘kach qilib, ob'ektiv olamni bilish mumkinligini inkor etuvchi soxta, idealistik ta'limot.

Reministsentsiya (lot.reminiscentia-eslamok)- oldin qabul qilinib, keyinrok deyarli unutilganni kechikib esga tushirish, jarayoni, ya'ni vaqtinchalik unutish holati.

Reproduktiv xayol-biror narsani uning og‘zaki tasviri yoki shartli irodasi chertyoj, sxema kabilar asosida tasavvur qilishdan iborat xayol turi.

Reproduktiv tormozlanish-o‘xshash elementlarga ega bo‘lgan asositsiyalarning o‘zaro tormozlanishi natijasida avval o‘zlashtirilgan materiallarni esga tushirishning qiyinlashuvi.

Respondent (lot.respondent-javob beruvchi)- psixologik tadqiqotda ma'lum bir savolga javob beruvchi kishi.

Retentsiya –xotiraning idrok qilingan narsa va hodisalarni saqlab qolish funksiyasi.

Retikulyar formatsiya (lot.formatio reticularis-tursimon boglam)-bosh miya tana qismidagi (uzunchok miya, o‘rta miya) nerv hujayraralari bo‘lib, qalin to‘rni eslatadigan o‘simtalarga egadir.

Retrograd amneziya (lot.retrogradus-orqaga ketuvchi, mneme-xotira)-ilgari yuz bergan voqeа-hodisalarni esda saqlagan holda xozir sodir bo‘lgan voqeа va hodisalarni unutishdan iborat xotira patologiyasi.

Refleks (lot.reflexus-aks etish)- organizmning retseptorlar qo‘zg‘alishiga javob reaktsiyasi. Vujudga kelgan qo‘zg‘alish markaziy nerv sistemasiga o‘zatilgach, u ham qo‘zg‘alish bilan javob qaytaradi. Qo‘zg‘alish efferent nervlar orqali turli a’zolarga uzatiladi.

Shartli reflyeks-orttirilgan, shartsiz ryeflyeks – tug‘ma refleks hisoblanadi.

Refleksiya (in'ioks,tajalliy) (lot.reflexus-aks ettirish) -sub'ektning u bilan muloqotga kirishgan sherigi tomonidan kay tarzda idrok etilishini anglab yetishi.

Retsidiv - yo‘qolib ketgandayoq bo‘lib tuyulgan xususiyatni, holatni qayta ro‘y berishi, takrorlanishi.

Retsipiyent (lot.recipientis-qabul qiluvchi kishi)- o‘ziga yo‘llangan xabarni qabul qiluvchi qilib oluvchi.

Rivojlanishning eng yakin zonasi- murakkab vaziyatni hal etishda bolaning mustaqilligi hamda kattalar rahbarligida bajarilgan vazifa orasidagi farq.

Refleks yoyi-refleks jarayonida nerv qo‘zg‘alishi o‘tadigan yo‘l, refleks hodisasi amalga oshiriladigan nerv yo‘li.

Refleks xalqasi-reflektor aktning ma'lum bir qo‘zg‘ovchiga tegishli javob qaytarish bilangina tamom bo‘lmasdani, retseptorlar yoki ishchi a'zolardan muayyan harakatning qanday bajarilayotganligi haqida markazga aks signallarining kelib turishidan iborat yaxlit sistema.

Retseptor (lot.recipere-qabul qilmok) -tashqaridan yoki organizm ichki muhitidan ta'surotni qabul qilib va uni nerv impulslariga aylantirib, markaziy nerv sistemasiga utkazib beradigan sezuvchi nerv tolalari uchlari yoki maxsus hujayaralar (ko‘z tur pardasi, ichki quloq va b.)

Rigidlik (lot.regidus-qattiq, mustahkam)- biror holatdan boshqa holatga o‘tishning qiyinligi, o‘zgarishlarga qarshilik qilish, inertlik, fikrni uqtirib bo‘lmaslik. R.ni kognitiv, effektiv va motivatsiyali turlari mavjud.

Rivojlanish- oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab o‘sishdan o‘zgarishi.

Ritor (yunon.rhitor-notik)-qadimgi yunon va rimliklarda notiqlikdan dars beradigan o‘qituvchi, balandparvoz, lekin kam mazmunli iboralardan tuzilgan nutq so‘zlovchi «notiq».

Ritorika-notiqlik nazariyasi, notiqlik san'ati haqidagi fan, chiroysi, lekin mazmunan kambag‘al nutq.

Rolli o‘yin – maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati. Unda bolalar ma'lum rolga kiradilar.

Rolli trening- guruh a'zolari tomonidan ma'lum rolgarni mashq qiladi.

Rorshax testi-ranglarning farqli xarakterini o‘rganuvchi test.

Romantik - kelajakka yaxshi ko‘z bilan qarovchi kelajak uchun xavf va qiyinchiliklardan ko‘rkmovchi, ishchan va irodali, qat’iy xarakterli shaxs.

Rotatsizm (yunon.rho harflari-«r»)- «r» tovushini talaffuz qila olmaslikdan iborat nutq kamchiligi.

Ruhlanish – shaxsning yangilik qilish va ijod etishiga undovchi ruhiy ko‘tarinkilik, ijodiy hayajonli, faollik holati.

S

Savodxonlik-og‘zaki va yozma nutq malakalarining adabiy til normalariga asosan o‘zlashtirilishi.

Savdo psixologiyasi – haridorlarga xizmat qilishning psixologik omillari bilan shug‘ullanadi.

Sadizm - azob berish, qaqshatishga ehtiroy bilan intilish, boshqalar tashvish g‘amidan lazzatlanish, birovga jabr qilishga intilish.

Salbiy hislar-ob'ektiv voqealikka bo‘lgan va o‘zaro munosabatimizdan kelib chiqadigan yoqimsiz kechinmalar.

Saloxiyat – qobiliyat so‘zining sinonimi. Toshkent shevasida iktidor deb ham yuritiladi.

Sangvinik – (yunon.sanguis-kon) ruhan kuchli, faol, harakatchan, tez va yorkin kiyofali, hissiyoti o‘zgaruvchan, nutqi tez, ba’zan e’tiborsiz va shoshiluvchan bo‘lgan temperament turi.S. inson dilkash va mehribon bo‘ladi.

Sangvinik temperament (lot.sanguis-kon, temperamentum-qismlarning zaruriy nisbati)-shaxsning tez, kuchli lekin beqaror emotSIONAL qo‘zg‘aluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

San’at psixologiya- psixologianing badiiy ijodiyotning psixologik mazmunini, san’at asarlarini idrok qilish va tushunish qonuniyatlarini va badiiy tarbiyaning psixologik problemalarini o‘rganuvchi mustaqil sohasi.

Sarosima-psixik holat, unda tashqi ta’sirlar natijasida kishida, kishilar guruhida umumiyoq ‘rquv va ushbu vaziyatdan chiqish holatini qidirish xususiyati paydo bo‘ladi.

Statik sezgilar-og‘irlik kuchining yo‘nalishiga nisbatan gavdaning fazodagi holatini sezishdan iborat sezgi turi.

Sezgilar – ob'ektiv reallik xossalaring inyikosi, ana shu xossalarning sezgi organlariga ta’siri va bosh miya nerv mexanizmlarini qo‘zg‘atishi natijasida vujudga keladi. Sezgi- dunyoning bilishning boshlang‘ich nuqtasi. Sezgi turlari har xil: to‘yish, eshitish, silkinish, hid bilish va b. Sezgining sifat xususiyatlari uning modalligi deyiladi.

Sezgi ambivalentligi (yunon.amphi—pristavka, obozn.dvoyst-t, lot.vakentia-kuch)- ba’zi bir ob’ekt uchun bir paytda seziladigan bir necha hissiyotli munosabatlar orasidagi o‘zaro qarama-qarshilik, ixtilof.

Sezgi a'zolari – sezuvchi nerv hujayraralari va qo'shimcha tuzilmalardan tuzilgan ko'rish, eshitish, gravitatsiya, hid bilish, ta'm bilish a'zolari.

Sezgi a'zolarining sensibilizatsiyasi-ma'lum bir qo'zg'ovchining ta'sir etishi natijasida sezgi a'zolari sezgirligining ortishidan iborat qonuniyat.

Sezgi a'zolarining quvvati-sezgi a'zolarining maxsus quvvati haqidagi qonun bo'lib, bu qonunga binoan sezgi a'zolari tashqi olamdag'i narsa va hodisalarning ta'sirini aks ettirmay, balki sezgi a'zolarining o'ziga xos quvvatini qo'zg'ovchi tashqi turtki deb hisoblanadi.

Sezgi chagarasi- minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar-bilinmas ta'sirini sezishning quyi chegarasi, eng yuqori kuchi ta'sirni sezishi (maksimal) yuqori chegarasi deyiladi.

Sezgirlik – ozgina farq etuvchi o'zaro ta'sirlarga yoki nisbatan kuchsiz ta'sirlarga javob bera olish qobiliyati o'ta sezuvchanlik.

Semantik (yunon.semantic-bildiradigan, irodalaydigan) -ma'noli so'zning ma'nosiga qaratilgan.

Senzitivlik (lot.sensus-hissiyot)-sezgilarning turli xil ta'sirotlarga nisbatan kuchli va tez qo'zg'alishi

Senzitiv yosh davrlari-bunda ma'lum yosh davri xos psixik xuusiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi hisoblanadi.

Sensibilizatsiya (lot.sensibilis-sezuvchan, ta'sirchan)-ichki omillar qo'zg'atgich ta'sirida nerv analizatorlari sezgirligining oshishi.

Sentimentalizm (fr.sentimentalisme-sezuvchanlik)-sensor sezgirlikdan farq qiluvchi haddan tashqari emotsiyal sezgirlik, narsa va hodisalarga o'ta emotsiyal munosabatda bo'lishi.

Sensor sezgilar (lot.sensus-sizgi, his) -sezgi a'zolariga tegishli bo'lgan sezgilar.

Sensor buzilish – sezgi a'zolari faoliyatining buzilishi.

Sensorika – sezgi va idrokning birgalikda umumlashtiruvchi tushuncha.

Sensomotor koordinatsiya (lot.sensus-sezgi,motor-harakatlantiruvchi, coordinatio-moslashish)- sezgi a'zolaridan olingan signallar bilan unga javob harakatining mos kelishi.

Sechenov tormozlanishi-1862 yili Sechenov tomonidan ochilgan kashfiyot bo'lib, yuqorigi markazlarning, xususan ko'rvuv nervini toosh to'zi kristali bilan qo'zg'atish natijasida baka orqa miya refleksining tormozlanishidan iborat.

Seskanuvchanlik-tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyatga ega javob qaytarish qobiliyati.

Signal – biror hodisa haqida organizmga axborot olib boruvchi va tirik organizmni bu hodisaga yo'naltiruvchi jarayon yoki hodisa. (berilgan javob).

